



Naf'ing agar
xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf'
o'zungga ko'prakdurur.

Alisher NAVOIY

ALISHER NAVOIY FENOMENI — JAHON AHLI NIGOHIDA

Buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi, Sharq Uyg'onish davrining yorqin namoyandasi Mir Alisher Navoiyning porloq nomi va bebaho merosi xalqimiz tarixida, milliy ma'naviyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida g'oyat muhim o'rin tutadi. Ulug' ajdodimiz o'zining o'lmas asarlarida ona tilimizning so'z boyligi va ifoda imkoniyatlarini butun jozibasini va latofati bilan namoyon etib, o'zbek adabiy tiliga asos soldi. Ayni paytda, o'zbek mumtoz adabiyotining shakllanishi va takomilida hech kim Navoiydek beqiyos xizmat qilgan emas, desak, ayni haqiqatdir.


Alisher Navoiy umumbashariy madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan Gomer va Dante, Servantes va Shekspir, Gyote va Tolstoy, Nizomiy Ganjaviy va Hofiz Sheroziy kabi jahon adabiyotining daholari safida turadi. G'arb olamida Tristan va Izolda, Romeo va Julyetta singari qahramonlar qanchalik mashhur va jozibali bo'lsa, Sharq dunyosida hazrat Navoiy yaratgan Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi adabiy personajlar ham shu qadar sevimli va qadrilidir.

Alisher Navoiyning asosiy fenomeni — u buyuk insonparvar va yuksak ideal sohibidir. Shoir hayot va adabiyotdagi asosiy orzusi — komil inson g'oyasini tarannum etish va uni butun dunyoga targ'ib qilish borasida ulkan ma'naviy jasorat ko'rsatgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Asrlar davomida shoir asarlaridan bahramand bo'lib kelayotgan minglab insonlar, ular qaysi millat va elat vakili bo'lmasin, jahonning qaysi mamlakatida yashamasin, o'z zamonasining barcha ijtimoiy-ma'naviy muammolariga, o'zlarini qiynayotgan savollarga javob topa oladilar. Chunki biron-bir hayotiy masala, qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar yo'qki, Navoiy qalamga olmagani bo'lsa!

Buyuk ajdodimizning o'lmas merosi biz uchun, ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida har qachongidan ham dolzarb va zarurdir. Bu bebaho xazina tinch va barqaror, erkin va obod hayot barpo etish yo'lida bashariyatga katta ma'naviy kuch baxsh etadi.

Ulug' gumanist Alisher Navoiy hamisha xalqning dard-u tashvishi bilan yashagani, umr bo'yi yordam va ko'makka muhtoj insonlarga mehr-muruvvat ko'rsatib, ilm-fan, san'at va adabiyot ahliga homiylik qilgani bu mumtoz siymoning yana bir ibratli fazilatidir. Uning mamlakat poytaxti Hirot shahrining o'zida o'z mablag'lari hisobiga uch yuz saksandan ortiq ijtimoiy muassasa —



madrasa va masjidlar, shifoxona va kutubxonalar, hovuz va ariqlar, yo'l va ko'priklar, bog' va xiyobonlar barpo ettirgani, adib va olimlar, rassom va me'morlar, sozanda va xonandalar, mohir hunarmandlarni doimo moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlab kelgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Shuhrat Siroyiddinovning o'quvchilarga taqdim etilayotgan yangi asari — "Alisher Navoiy fenomeni" nomli kitobi buyuk shoir ijodi namunalari hamda ilmiy asoslangan tarixiy ma'lumotlar bilan jahon afkor ommasi, xususan, xalqaro ilmiy, madaniy-ma'rifiy markazlarini yaqindan tanishtirish maqsadida tayyorlangan. Ushbu muhtasham kitob dunyo ahli tomonidan Navoiy dahosiga qiziqish o'z davridan to bugungi kungacha qadar so'nmay kelayotgani va tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shoir sarvari, mutafakkirlar peshvosi, buyuk qalb sohibi Mir Alisher Navoiyning barhayot merosi, umrboqiy asarlari yer yuzidagi yangi-yangi avlodlarni tarbiyalab, olam ahlini doimo yaxshilik va ezgulikka, mehr-oqibat, do'stlik va hamjihatlikka chorlab turadi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

BUGUNNING SUHBATI



“UMIDIM BULDURKIM, UMIDINGG'A YETG'AYSEN!”

TAHRIRIYATDAN: Darhaqiqat, Germaniyada "Alisher Navoiy fenomeni" deb nomlangan muhtasham asarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyev So'zboshisi bilan chop etilishi yurtimiz madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi. Zotan, buyuk bobomiz Alisher Navoiy o'zining insonparvarlik g'oyalari, badiiy-falsafiy qarashlari, o'lmas she'riy asarlari bilan bashariyat tafakkuri rivojiga beqiyos hissa qo'shgan malik ul-kalom va mutafakkir sifatida dunyo ahlini tobora kengroq o'ziga jalb qilmoqda. Chunki bugun uning umumbashariy gumanistik g'oyalar tarannumi etilgan bebaho adabiy merosining ahamiyati har qachongidan ham muhim sanaladi. Sharq adabiyotining deyarli barcha janrlarida


ijod etgan, jami she'riy satrlari yuz mingdan ortiq bo'lgan bunday so'z san'atkorini jahon adabiyotida sanoqli desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Mana, qariyb olti asrki, Navoiyning ma'naviy xazinasidan bahra olib, ko'nglimiz va ruhiyatimizni tarbiya qilmoqqa chog'lanamiz. Bu ulug' yo'lida ne-ne olimlar qanchadan qancha yillarni, ko'z nuri, qalb qo'rini bag'ishlamadi deysiz. Lekin hamon bu ummon tubidagi dur-u javohirlarga to'liq egalik da'vosini qilolmaymiz. Shunday mashaqqatli va sharafli yo'lida izlanishlar olib borayotgan taniqli navoiyshunos, "Alisher Navoiy fenomeni" asari muallifi, akademik Shuhrat Siroyiddinov bilan ayni shu bitmas-tuganmas mahzan borasida suhbatlashdik.

(Davomi 3-sahifada.)

SHU SONDA:

“RAQAMLI INQILOB”DAN “YASHIL INQILOB” SARI

yoki texnokratlashuvning “malhami” qanday bo'ladi?



ONAJONIM - TABIAT

Har bir hudud, har bir makonning obodligi va musaffoligiga kundalik vazifa sifatida e'tibor qaratish — davr talabiga aylanib boryapti. Loqaydlik, boqibeg'amlik avj olgan joyda tabiatning keskin qasosiga duch kelish mumkin. Shu boisdan ham atrof-muhit muvozanatini saqlashga har birimiz mas'ulmiz.

SHAMOLDAN QUVVAT OLIB...

— 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb nomlangan ekan, barchamiz joylarda bu borada amalga oshiriladigan ishlarga mas'uliyat bilan yondashishimiz lozim, — deydi O'zbekiston Ekologik partiyasi Navoiy viloyati kengashi mutaxassisi Sardor Islomov. — Avvalo, har bir mahalla hamda yirik mehnat jamoalarida "Ekologiya nazoratchisi" shtatini joriy qilish kerak. Bu haqda bir necha yillardan beri gapirilyapti. Ammo amaliy ishga o'tish nima uchundir paysalga solinmoqda.

Agar mahallalar va mehnat jamoalarida mazkur shtatlar joriy qilinib, unga tabiatshunos, o'simlikshunos yoxud hayvonot olami bo'yicha mutaxassislar birlashtirib qo'yilsa, ko'zlangan maqsadlarga erishish osonroq kechgan bo'lar edi.

Darhaqiqat, atrof-muhitni asrash bilan birgalikda "yashil" iqtisodiyot-



ga o'tish masalasi dunyo hamjamiyatining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Elektr energiyasiga talab va ehtiyojning tobora ortib borishi natijasida muqobil va havoni ifloslantirmaydigan energiya ishlab chiqarishni kuchaytirish davr taqozosiga aylangan.

(Davomi 6-sahifada.)

MILLAT FIDOYILARI

“JADIDLAR. TURKISTONGA MAKTUBLAR” TURKUMIDAN

Quyida e'tiborlaringizga bundan yuz yil avval Berlin shahridan O'zbekistonning davlat rahbari Akmal Ikromov nomiga yo'llangan ikki maktubni havola qilmoqdamiz. Birinchi xat Abdurahob Is'hoq tomonidan yozilgan. Abdurahob Is'hoq o'g'li 1904-yil 10-fevralda Toshkent shahrida tug'ilgan. Mashhur jadid muallimlari Sobirjon Rahimiyning "Rahimiya", Eshonxo'ja Xoniyning "Xoniya" va maktublarida ibtidoiy, Munavvar qori Abdurashidxonovning "Namuna" maktabida ruzhdoy (o'rta) ta'lim olgan.

1917-yil do'sti Tohir Shokir bilan Ozarbayjonning Boku shahriga borib, ziroat bilim yurtida o'qigan. 1922-yil "Ko'mak" uyushmasi tashabbusi bilan oliy ma'lumot olish maqsadida Germaniyaga yo'l olgan. Abdurahob Is'hoq qisqa muddatli til o'rganish kursidan so'ng Germaniyaning mashhur Haydelberg universiteti tibbiyot fakultetiga o'qishga kiradi. U yerda

oliy ta'lim dargohini muvaffaqiyatli bitirish bilan bir vaqtda doktorlik dissertatsiyasini yoqlashga ham erishadi. O'sha kezlari Yevropa matbuotida Turkistonda sovetlar olib borayotgan nohaq zulm haqida, "Yosh Turkiston" gazetasida vatan taqdiriga oid yuzlab maqolalar yozdi. Germaniyada fashizm hokimiyatga kelishi tufayli Turkiyaga ko'chib o'tgach, Abdurahob O'qtoy (1904–1968) nomi bilan ilmiy ijodini va mehnat faoliyatini davom ettirdi. U o'zi bilan Germaniyada o'qishga yo'l olgan toshkentlik Saida Sherahmedovaga uylangan. Saida Sherahmedova Akmal Ikromovning otasi Ikrom domlaning maktabida, 1918-yildan Vali hoji boyning hovlisida ochilgan birinchi o'zbek bilim yurtida Oydin Sobirova, Xosiyat Tillaxonova, Robiya Nosirova bilan o'qigan. Ularga Munavvar qori, Shokirjon Rahimiy, Saodatxonim Yenikeyeva, Qrimdan kelgan Murshidaxonim Ismoilova, qozonlik Gavharxonim Aliyeva ta'lim bergan.

(Davomi 7-sahifada.)




“UMIDIM BULDURKIM, UMIDINGG'A YETG'AYSEN!”

Boshlanishi 1-sahifada.

– Assalomu alaykum, domla. Shu chog'gacha sizning Alisher Navoiy merosiga bag'ishlangan kitoblaringiz Ozarbayjon, Qozog'iston, Afg'oniston, Turkiya va AQShda nashr etilganini eshitgan edim. Shubhasiz, “Alisher Navoiy fenomeni” asaringiz ham ulug' mutafakkir bobomizning olamshumul adabiy merosini xorijiy mamlakatlarda targ'ib qilish borasida yana bir salmoqliq qadam bo'ldi. Avvalo, o'quvchilarimizni ushbu asar Germaniyada nemis tilida emas, aynan ingliz zabanida nashr etilganini qiziqitirishi tabiiy.

– Vaalaykum assalom. Buning o'ziga xos tarixi bor. Avvalo, kitob-



larim chet ellarda nashr etilishi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning biz kabi olimlarga yaratib bergan sharoit va g'amxo'rliqi bilan bog'liq. Davlatimiz rahbarining Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosini chet ellarda targ'ib etish, xorijda Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va madaniyati markazlarini ochish bo'yicha bizga topshirgan vazifalari ijrosi jarayonida ko'p mamlakatlarda bo'lish va u yerdagi olimlar bilan suhbatlar qilish imkoniyatiga ega bo'ldim. Juda ko'p do'stlar va ilmiy hamkorlar ortirdim. Qayerda bo'lmay, Alisher Navoiy hayoti va ijodi bahonasida gap aylanib xalqimizning shonli tarixi, buyuk madaniyati va salohiyati, shuningdek, bugun Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlarga borib taqaladi. Ularning ko'zidagi hayrat havasga aylanayotganini ko'rib juda xursand bo'ldim. Chet elliklarga beradigan sovg'alarim ichida 2018-yili Toshkentda ingliz tilida nashr etilgan “Buyuk Mir Alisher Navoiy” kitobim ham bor edi. Ularga Navoiy o'ngansangiz, millatimizni tanisiz deb ayardim. Tabiiyki, xorijliklarda Navoiy shaxsiyatiga qiziqish bilan birga yurtimizga kelish niyati tug'ildi.

Do'stona hamkorlik natijasida “Amir Alisher” monografiyam Ozarbayjonda, Turkiyada nashr etildi. Amerika fuqarosi bo'lgan bir millatdosh do'stim uni AQShda nashr ettirdi. Shu orada Prezidentimiz topshirig'iga binoan “Boburnoma” asarining italyancha tarjimasini va nashrini tayyorlash uchun Italiyaga borishga to'g'ri keldi. U yerdagi noshirlar asarlarni yuksak saviyada nashrga tayyorlashga usta ekan. Havasim keldi. “Boburnoma” asari Prezidentimiz so'zboshisi bilan juda chiroqli bezaklarda nashr etildi. Shunda mening xayolimda dunyoga Navoiy dahosini ko'rsata oladigan matn va shunga yarasha



dizayn bilan bir kitob qilish g'oyasi paydo bo'ldi. Kitob matni va dizayni tayyor bo'lgach, Prezidentimizning o'q fohisi bilan uni nashr qilishga kirishdim. Bundan xabar topgan do'stlarim, garchi u ingliz tilida bo'lsa-da, Germaniyada chop ettirishni tavsiya qildilar va ko'maklashdilar. Kitob Navoiy “Xamsa”si qo'lyozmasi charam muqovasidan andoza olingan bo'rtma muqovaga ega. U o'n beshinchi asrning mashhur miniaturachi rassomi Kamoliddin Behzod va undan keyingi asrda yashab o'tgan mashhur miniaturachi rassomlarning Navoiy asarlariga hamda mashhur shoir-larning asarlariga ishlangan 81 ta miniatura, o'zbek rassomlari va haykaltaroshlarining 30 ta ijod namunasi suratlar bilan bezatilgan. Kitobdan Navoiyning taniqli tarjimonlar Qosimboy Ma'murov va Aidaxon Bumatova tomonidan mahorat bilan ingliz tiliga tarjima qilingan 141 ta she'ri joy olgan. Bu tarjimalar sal ilgariroq AQSh va Buyuk Britaniya adabiy jurnallarida chop etilgan bo'lib, chet ellik sharqshunos va turkolog olimlarning yuksak bahosiga sazovor bo'lgan edi.

– Prezidentimiz so'zboshisi bilan chop etilgan ushbu asaringizda Navoiy fenomenining qaysi jihatlari yoritilgan?

– Kitobda Alisher Navoiyning buyukligiga dalolat qiluvchi faoliyatining olti qirrasini ochib berilgan. Muqaddimada Navoiyning tarjimai holi bayon etilgan. Keyin bobokolonimiz avvalo shoir sifatida, so'ngra davlat arbobi, fan va san'at homiysi, buyuk taqvodor mutasavvuf, komil inson g'oyasi targ'ibotchisi kabi yorqin qiyofalarda namoyon bo'ldi.

– Bu kitobning o'quvchilari kim? Keng ommami yoki ilmiy jamoatchilik?

– Albatta, keng ommaga mo'ljallangan. Afsuski, dunyo hanuz Navoiy haqida rus sharqshunosi V.Bartold muhrlab qo'yg'an tasavvurlar bilan yashab kelmoqda. Biz uchun dunyo ziyolilari hazrat Navoiy kim ekanligini bilishi, unga Hofiz va Rumiya bo'lgani kabi muhabbat qo'yishi muhim. Zotan, Navoiyning bilim – o'zbekni tanimoq demakdir. O'zbekni tanimoq esa millatimizga hurmat, Yangi O'zbekistonda xayrixohlikni shakllantiradi. Umid qilamanki, ushbu kitob dunyoning eng nufuzli kitob rastalaridan munosib joy oladi. Sharq adabiyoti muxlislariga sovg'a qilinadigan eng muhtasham hadya bo'ldi.

– Ma'lumki, Alisher Navoiy Sharq Renessansining yirik namoyandasi sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida, ayniqsa, turkiy tili xalqlar madaniy va

ma'naviy hayotining rivojida alohida o'rin tutishi butun dunyo ilm ahli tomonidan e'tirof etilgan. Buning asosiy sabablari haqida nima deya olasiz?


– Alisher Navoiy nafaqat shoir va davlat arbobi, balki turkiy tiling boy imkoniyatlarini ko'rsatib bera olgan tilshunos olim sifatida ham beqiyos mavqega ega. Bundan tashqari, shu tilda go'zal asarlar yaratish uchun o'z asarlarini namuna qilib bera olgan noyob iste'dod sohibi hisoblanadi. Bu bilan u zoti muborak turkiy tili xalqlarning milliy adabiyotlari rivojiga zamin yaratdi. Tarixga bir nazar solsangiz, o'n oltinchi asrdan keyingi turkiy xalqlar adabiyoti ayni Navoiy tilida yaratilgan. Navoiy asarlarini har bir turkiy xalq o'z lahjasi talaffuziga moslab bemalol o'qiy olgan. Yana bir narsani shu yerdan ta'kidlab o'tish joizki, Navoiy butun ongli hayotini turkiy xalqlarning nufuzini, milliy g'ururi va milliy o'ziga xosligini bir yuzida kechayotgan barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa jarayonlarga, insoniyat taqdiriga xavf tug'diruvchi omillarga loqayd bo'lmaslikka, ezigulik hukmronligiga erishuv uchun kurashga chorlaydi. “Ezigulik eng ulug' ishdur, – deydi Navoiy. – Butun dunyo xalqlari oldida isbotlangan haqiqat shuki, ezigulikning mukofoti ezigulkdir. Ezigulikni o'zingga shior qil va uni abadiy baxtning garovi deb bil. Odamgarchilikning eng qimmat gavhari ezigulkdir.”

Insonni har tomonlama yetuk, barkamol va bag'rikeng, yurtini tinch va obod ko'rish, riyat tinchligi va farovonligini ta'minlash, turli xalqlarni o'zaro do'stlik va hamjihatlikka, ezgu maqsadlar yo'lida hamkorlikka chaqirish – mutafakkir ijodining asosiy leymotivini tashkil etadi. Bu g'oyalari, ayniqsa, Navoiy “Xamsa”-siga kiritilgan dostonlar turkumida badiiy-falsafiy jihatdan benihoya ta'sirchan, betakror she'riy pardalarda ifodalangan bo'lgani uchun ham u jahon adabiyotining noyob obidalaridan biriga aylandi.

– Bu gaplaringiz ayni haqiqat. Biroq Alisher Navoiyning jahon miqosida yanada kengroq tanilishi, targ'ib qilinishi yetarli darajada emasdek, nazarimda. Bu borada sizning fikringiz qanday?

– Fikringizga qo'shilaman. Buning obyekti va subyekti sabablari bor. Biroz tarixga qaytsak. Alisher Navoiy hayoti va ijodi masalalari o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab dunyo sharqshunolari e'tiborini tortib keladi. Rus va turk olimlari ko'proq, g'arb olimlari kamroq darajada bo'lsa ham bu borada muayyan tadqiqotlarni amalga oshirib kelganlar va bu jarayon bugungi davrda ham to'xtab qolgan yo'q. Ammo hech bir davlatda Navoiy ijodi bizdagidek chuqur o'rganilmagan. O'tgan yuz yil davomida O'zbekiston olimlari tomonidan ulug' shoir ijodi bo'yicha necha yuzlab katta-kichik tadqiqotlar e'lon qilingan. Fidoiy manbashunos va matnshunos olimlarimiz dunyoda birinchi bo'lib mamlakatimizda va turli davlatlar muzeylariga sochilib ketgan qo'lyozmalarini o'rganish orqali Navoiy asarlarining to'liq ro'yxatini tuzish va zamonaviy yozuvga o'girishga muvaffaq bo'la-

o'lgan. Natijada shoir asarlari minglab nusxalarda qayta-qayta nashr etilgan, asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari, ko'pildli to'plamlari yaratilgan. Hatto sovet davrida ulug' shoir asarlarini rus tiliga tarjima qilish ishlari ham o'zbek olimlarining tashabbusi bilan amalga oshgan. Yaxshi bilasiz, sobiq Ittifoq yopiq davlat bo'lgani uchun ham o'zbek olimlarining tadqiqotlari chet ellarda mashhur bo'lmagan. Boz ustiga, Alisher Navoiyning dunyoga tanitishga mavjud tuzum ham ro'yxushlik bermagan. Chunki Navoiy ijodida ko'tarilgan g'oyalarning jahonga tarqalishi turkiy xalqlar o'rtasida milliy birlashuvga sabab bo'lishi va ayniqsa, o'zbek xalqining buyuk o'tmishidan dunyo xabardor bo'lishi imperiyaparast kuchlarni xavotirga solgan. Bu – masalaning obyekti sababi. Subyektiv sabablarga kelsak, mustaqil bo'lgunimizcha mamlakatimizda chet tillarni keng o'rganish rag'batlantirilmagan. Katta yoshdagi kishilar yaxshi biladi, oliy o'quv yurtlarida g'arb tillari fakulteti eng reytingi past bo'lim hisoblanardi. O'zingiz shundan xulosa qilavering.



mas'ullik, tabiat bilan uyg'un yashash va jamiyatni taraqqiy etirish burchini tushunib yetadi. Ushbu mas'uliyat va vazifa insonni yer yuzida kechayotgan barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa jarayonlarga, insoniyat taqdiriga xavf tug'diruvchi omillarga loqayd bo'lmaslikka, ezigulik hukmronligiga erishuv uchun kurashga chorlaydi. “Ezigulik eng ulug' ishdur, – deydi Navoiy. – Butun dunyo xalqlari oldida isbotlangan haqiqat shuki, ezigulikning mukofoti ezigulkdir. Ezigulikni o'zingga shior qil va uni abadiy baxtning garovi deb bil. Odamgarchilikning eng qimmat gavhari ezigulkdir.”

Insonni har tomonlama yetuk, barkamol va bag'rikeng, yurtini tinch va obod ko'rish, riyat tinchligi va farovonligini ta'minlash, turli xalqlarni o'zaro do'stlik va hamjihatlikka, ezgu maqsadlar yo'lida hamkorlikka chaqirish – mutafakkir ijodining asosiy leymotivini tashkil etadi. Bu g'oyalari, ayniqsa, Navoiy “Xamsa”-siga kiritilgan dostonlar turkumida badiiy-falsafiy jihatdan benihoya ta'sirchan, betakror she'riy pardalarda ifodalangan bo'lgani uchun ham u jahon adabiyotining noyob obidalaridan biriga aylandi.


– Bu gaplaringiz ayni haqiqat. Biroq Alisher Navoiyning jahon miqosida yanada kengroq tanilishi, targ'ib qilinishi yetarli darajada emasdek, nazarimda. Bu borada sizning fikringiz qanday?

– Fikringizga qo'shilaman. Buning obyekti va subyekti sabablari bor. Biroz tarixga qaytsak. Alisher Navoiy hayoti va ijodi masalalari o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab dunyo sharqshunolari e'tiborini tortib keladi. Rus va turk olimlari ko'proq, g'arb olimlari kamroq darajada bo'lsa ham bu borada muayyan tadqiqotlarni amalga oshirib kelganlar va bu jarayon bugungi davrda ham to'xtab qolgan yo'q. Ammo hech bir davlatda Navoiy ijodi bizdagidek chuqur o'rganilmagan. O'tgan yuz yil davomida O'zbekiston olimlari tomonidan ulug' shoir ijodi bo'yicha necha yuzlab katta-kichik tadqiqotlar e'lon qilingan. Fidoiy manbashunos va matnshunos olimlarimiz dunyoda birinchi bo'lib mamlakatimizda va turli davlatlar muzeylariga sochilib ketgan qo'lyozmalarini o'rganish orqali Navoiy asarlarining to'liq ro'yxatini tuzish va zamonaviy yozuvga o'girishga muvaffaq bo'la-

o'lgan. Natijada shoir asarlari minglab nusxalarda qayta-qayta nashr etilgan, asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari, ko'pildli to'plamlari yaratilgan. Hatto sovet davrida ulug' shoir asarlarini rus tiliga tarjima qilish ishlari ham o'zbek olimlarining tashabbusi bilan amalga oshgan. Yaxshi bilasiz, sobiq Ittifoq yopiq davlat bo'lgani uchun ham o'zbek olimlarining tadqiqotlari chet ellarda mashhur bo'lmagan. Boz ustiga, Alisher Navoiyning dunyoga tanitishga mavjud tuzum ham ro'yxushlik bermagan. Chunki Navoiy ijodida ko'tarilgan g'oyalarning jahonga tarqalishi turkiy xalqlar o'rtasida milliy birlashuvga sabab bo'lishi va ayniqsa, o'zbek xalqining buyuk o'tmishidan dunyo xabardor bo'lishi imperiyaparast kuchlarni xavotirga solgan. Bu – masalaning obyekti sababi. Subyektiv sabablarga kelsak, mustaqil bo'lgunimizcha mamlakatimizda chet tillarni keng o'rganish rag'batlantirilmagan. Katta yoshdagi kishilar yaxshi biladi, oliy o'quv yurtlarida g'arb tillari fakulteti eng reytingi past bo'lim hisoblanardi. O'zingiz shundan xulosa qilavering.

Navoiyshunoslarimiz arab va fors tillarini mukammal bilsalarda, ingliz tilidan bebahraligi uchun milliy qobiqdan chiqq olmadilar, nari borsa, o'z tadqiqotlarini rus tilida nashr qilishga erishdilar. Bu ham sanoqli olimlarga nasib etgan. Rus tilidagi kitoblar ham, yuqorida aytganimgdek, qattiq senzura nazorati ostida nashr etilgan. O'zbek olimlari o'z tadqiqotlarini chet tillarda nashr qilishning iloji bo'lmaganidan

mas'ullik, tabiat bilan uyg'un yashash va jamiyatni taraqqiy etirish burchini tushunib yetadi. Ushbu mas'uliyat va vazifa insonni yer yuzida kechayotgan barcha siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa jarayonlarga, insoniyat taqdiriga xavf tug'diruvchi omillarga loqayd bo'lmaslikka, ezigulik hukmronligiga erishuv uchun kurashga chorlaydi. “Ezigulik eng ulug' ishdur, – deydi Navoiy. – Butun dunyo xalqlari oldida isbotlangan haqiqat shuki, ezigulikning mukofoti ezigulkdir. Ezigulikni o'zingga shior qil va uni abadiy baxtning garovi deb bil. Odamgarchilikning eng qimmat gavhari ezigulkdir.”



bu ishga qo'l siltab qo'yishgan. Shunday bo'lgach, Navoiyning dunyoda targ'ib qilishdan ko'ra mamlakat ichida ko'proq tanishtirish bosh maqsadga aylandi. Ayni mana shu ezgu harakatlari uchun ham ustoz navoiyshunoslarimiz oldida mangu qardormiz. Ayni shu insonlarning sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston bugun jahon navoiyshunosligining markaziga aylandi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning amaliy harakatlari bilan O'zbekistonning jahonga ochilishi butun dunyo turkologlarining o'zbek navoiyshunoslari ishlari bilan yaqindan tanishishiga imkon yaratdi. Shuning barobarida davlatimiz rahbarining o'zbek ziyolilarining ingliz va boshqa chet tillarni o'rganishga qiziqishini oshirishga qaratilgan siyosati va bu borada yo'lga qo'yilgan rag'batlantirish tizimi navoiyshunos olimlarning yangi avlodi uchun ham Navoiyning chet ellarga tanitish borasida katta imkoniyat berdi. Oxirgi yillarda chet ellarda o'tkazilayotgan ilmiy konferensiyalar va simpoziumlarda qatnashayotgan o'zbek navoiyshunoslarining safi kengayib bormoqda, olimlarimizning tadqiqotlari chet ellarda nashr etila boshladi.

– Ustoz, bu lutfingizga bobo til bilan javob aytganda: “Umidim buldurkim, umidimg'a yetg'aysen!” Suhbatimiz so'ngida sizga mushtariylarimiz nomidan minnatdorlik bildirgan holda, buyuk bobomiz tavallud ayomi bilan ham qutlab qolamiz.

– Tashakkur.

Iqbol MIRZO
suhbatlashdi.

JARAYON



XALQARO ADABIY BAYRAM

Normat TURSUNOV,
Navoiy viloyati hokimi:

– Muhtaram Prezidentimiz o'tgan yilning 31-oktyabr – 1-noyabr kunlari viloyatimizga tashrif chog'ida hazrat Alisher Navoiyning bebaho merosini aholi orasida faol targ'ib qilishga oid muhim vazifalarni belgilab berdilar. Ayniqsa, 2025-yilni viloyatimizda “Alisher Navoiy yili” deb e'lon qilish haqidagi tashabbus buyuk ajdodimizning nomini ulug'lash yo'lidagi yana bir ezgu qadam bo'ldi.

Har yili fevral oyi yurtimizda adabiy bayramlar o'yiga aylanib ketadi. Ayniqsa, hazrat Navoiy nomi bilan yuritiluvchi shahrimizda uning tug'ilgan kuniga bag'ishlab juda katta ilmiy-madaniy tadbirlar o'tkaziladi, dunyoning turli davlatlaridan ko'plab olimlar shahrimizda jam bo'ladi. Bu safar ayyomimiz ko'lamini kengaytirib, 8-9-fevral kunlari u zoti sharifni yod etib, shu bilan birga, ilmiy-amaliy anjuman, mushoira va kitobxonlik kechalari o'tkazishni niyat qilganmiz. Shu kunlarda “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” xalqaro simpoziumiga kelayotgan bir guruh mehmonlarni kutib olishga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqdamiz.

Simpoziumda respublikamizda irod qilayotgan 150 dan ziyod jamoat arboblari, shoir va yozuvchilar, jurnalistlar, olimlar, madaniyat va san'at namoyandalari, oliy ta'lim muassasalari prorektorlaridan tashqari, 15 ta xorijiy mamlakatdan taniqli navoiyshunoslar ishtirok etish istagini bildirdi. AQSh, Pokiston, Eron, Turkiya, Ozarbayjon, Belgiya, Vengriya, Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston va boshqa davlatlardan kelayotgan professorlarning bevosita chiqishlari kutilmoqda hamda simpoziumda yana bir guruh xorijiy olimlarga masofadan turib ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.



Shuningdek, bu xalqaro simpozium jarayonlariga taniqli ijodkor va olimlar bilan bir qatorda, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan adabiy, ilmiy va madaniy jamoatchilik vakillari, oliy ta'lim muassasalarining ijod qituvchilari hamda faol talabalar ham ishtirok etadi.

Shaharning eng ko'zga ko'ringan zamonaviy san'at va madaniyat saroylarida ilmiy-nazariy sho'ba yig'ilishlari, “Nazm va navo” kechalari, amaliy seminarlar va ilmiy-adabiy uchrashuvlar, davra suhbatlari, g'azalxonlik mushoirlari, kitob taqdimotlari bo'lib o'tadi.

9-fevral kuni mehmonlar va viloyatimiz jamoatchiligi ishtirokida dunyo adabiyotida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yib, chuqur ehtiromimizni izhor etamiz.

Albatta, navoiyxonlik kunlari shu bilan tugamaydi. Simpoziumga taqdim etilgan ilmiy maqolalarni alohida to'plam sifatida nashrdan chiqarish, Navoiyning ijodiy merosiga oid eng yaxshi materiallarni “Turkologiya. Turkology” ilmiy jurnalida chop etish, “Navoiy viloyati tajribasi” sifatida yosh ijodkorlar, jumladan, respublikamizdagi ijod maktablarining iqtidorli o'qituvchi va o'quvchilari o'rtasida Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha ijodiy tanlovlar tashkil etish ham rejalashtirilgan.

Qisqa qilib aytganda, viloyatimizda o'tadigan an'anaviy anjuman buyuk shoirini sevgan adabiyot ixlosmandlarini yana va yana Navoiyga chorlaydi.

Muhayyo PIRNAFASOVA yozib oldi.



“Navoiyga aql bilan yetish mumkindir, uni tafsir qilish, fikrlarni, tashbehlarini, g'oyalarni o'rganish mumkindir, lekin unga his bilan yetib borish, ruhan yaqinlashish uchun qariyb Navoiyday hissiyot va ruhiyatga ham ega bo'lish kerak.”

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston Qahramoni




3D formatda ko'rish uchun QR-kodni skaner qiling.



YANGI NASHRLAR

JAHONGA BO'YLAGAN HIKMATLAR

Navoiy ijodiyoti ummon ostidagi bitmas-tuganmas dur-u javohirlarga o'xshaydi. "Sharq durdonalari" (Pearls of the East) nomli ushbu kitob, ana shu javohirotning eng kichik durlaridan tizilgan marjon – hazrat Alisher Navoiyning 100 dona hikmatli so'zlari va ularning turk, ingliz va xitoy tillariga tarjimalaridan iborat mo'jazgina to'plamdir.



Mazkur kitob Toshkent Kimyo xalqaro universiteti tashabbusi bilan hazrat Navoiyning 584 yilligiga tuhfa sifatida Turkiyaning "Mega Basim" bosmaxonasida zamonaviy sifat va mumtoz bichimda chop etildi. Unda Navoiyning G'arb va Sharq dunyosidagi Yangi Rennessans uchun hamon dolzarb bo'lgan komil inson g'oyasi, bashariyat kurashib kelayotgan turli illatlar, umuminsoniy masalalarga oid falsafiy qarashlari aks etgan eng sara hikmatlari jamlangan.

To'plamga taniqli navoiyshunoslar Dilnavoz Yusupova va Ergash Ochilov tomonidan zamonaviy o'zbek tiliga tabdil qilingan aforizmlar ilova qilindi. Zero, bu kitob nafaqat xorijliklar, balki Navoiy asarlari tili murakkabligi tufayli shoir ijodidan bebahra qolayotgan chet tillarini biluvchi zamonaviy yoshlar uchun ham mo'ljallangan.

To'plamdagi tarjimalar Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasining professor-o'qituvchilari tomonidan amalga oshirildi. Kitobga ishlangan illyustratsiya va rasmlar shu universitetning "Rangtasvir" yo'nalishi o'qituvchilari va talabalari tomonidan yaratilgan.


Gulnoza ODILOVA,
filologiya fanlari doktori,
professor

Mamlakatimiz ilm-fani, madaniyati va adabiyoti tarixida ilk marotaba yaratilgan "Alisher Navoiy ensiklopediyasi" – Yangi O'zbekistonning madaniy va ilmiy hayotida nihoyatda muhim hodisadir. To'rt jildidan iborat mazkur ensiklopediya buyuk shoir va mutafakkir, yirik davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy mansub bo'lgan XV asrning II yarmi Xuroson va Movarounnahrda tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va adabiy hayot, ulug' shoirning tarjimai holi, faoliyati, yaqinlari, do'stlari, ijodiyotining ma'naviy sarchashmalari, salafarlari, adabiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati, qolaversa, mumtoz adabiyotimiz tarixida tutgan beqiyos o'rnini xususida atroflicha ma'lumotlarni qamrab olgan. Unda tarix, din, tasavvuf, irfon, ma'naviy komillik mavzulariga ham keng o'rin berilgan.

Darhaqiqat, jonajon Vatanimizda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotda yuz berayotgan yangilanish va erkinlik navoiyshunoslikda ham o'z aksini ko'rsatdi. Faoliyatining dastlabki kunlaridanoq davlatimiz rahbari butun xalqni Navoiy ijodiyotini yangi ma'naviy ehtiyoj va maqsad bilan o'qib-organishga chorladi. To'rt jildlik "Alisher Navoiy ensiklopediyasi" Prezidentimizning 2020-yil 19-oktyabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy shavrlarining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

"O'zbekiston" nashriyoti bu muhtasham nashrning dunyo yuzini ko'rishida astoydil jonbozlik ko'rsatdi. Kitob O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori

Afg'onistonda dariy tilida "Zindagoniy va ofaridahoyi Alisher Navoiy" ("Alisher Navoiy hayoti va faoliyati") monografiyasi nashr etildi. Monografiya AQSH fuqarosi, hozirgi paytda Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati institutida faoliyat ko'rsatayotgan Azizulloh Aral hamda afg'onistonlik olim Sayid Muhammad Olim Labib tomonidan yozilgan. Kitob qisqa kirish so'zi bilan boshlanib, unda ushbu tadqiqotning bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi xususida so'z boradi. Afg'onistonda Navoiy ijodini keng targ'ib etish, mutafakkir shoir siyosiga bo'lgan ehtirom ramzi sifatida ushbu tadqiqotning qiymati benazirdir.



SHOIR HAYOTI VA FAOLIYATI DARIY TILIDA

Kitobning birinchi bobida XIV asrning ikkinchi yarmi – XVI asrning birinchi yarmida Xuroson va Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy jarayonlar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Alisher Navoiydek zotning dunyoga kelishi, uning yuksak shoirlik iqtidori hamda bu iqtidorning yuzaga chiqishida davr va muhitning roli tadqiq etiladi.

Keyingi boblardan Navoiy hazratlarining tarjimai holi, navoiyshunoslik sohasining qisqacha tarixi borasida ma'lumotlar o'rin olgan. Navoiyning lirik merosi, uning ijodiyotida kichik janrlar kabi masalalar ham o'zbek navoiyshunosligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida keng yoritilgan. Yana bir bob Alisher Navoiy lirik merosida ijtimoiy-axloqiy va falsafiy qarashlar mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, shoirning o'z davri axloqiy qadriyatlariga ta'sirini, so'zining ruhoniy kuchini alohida e'tirof etadi. "Buyuk Xamsa"ning yaratilishi" bobida Navoiyning 1483–1485-yillarda, eng qisqa muddatda "Xamsa"ni yozib tugatishi, Sharq adabiyotidagi bu ulug' an'anani davom ettirishga qanday omillar turki bergani kabi masalalar bo'yicha fikr va mulohazalar berilgan.

Navbatdagi bob "Hayrat ul-abror" dostoni ijtimoiy-axloqiy qarashlarning ifodasi xususida bo'lib, har bir maqolada fikr yuritilgan mavzu hikmatlar durdonasi sifatida millat ma'naviyati uchun qimmatli ekani ta'kidlangan. Keyingi 4 ta bob "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlari tahliliga bag'ishlangan. Mualliflar "Farhod

va Shirin"ga "qahramonlik dostoni" deb ta'rif berishadi, undagi har bir obrazning asardagi o'rnini, qanday timsol ekaniga to'xtalib o'tishadi. "Layli va Majnun" dostoni "muhabbat qissasi" deb atalgan, undagi ilohiy ishq motivining badiiy talqini tahlil qilingan. "Sab'ai sayyor" dostonida esa "oshiqlik va podshohlik masalasi" o'rganilgan. "Saddi Iskandariy" dostonida odil podshoh vasfiga alohida diqqat qaratilgan. Keyingi bobda "Lison ut-tayr" tahlil qilingan bo'lib, mualliflar ushbu dostonni "majoziy-falsafiy doston", deb tavsiflashgan. Monografiyaning so'nggi bobi Navoiyning ilmiy asarlari tadqiqiga bag'ishlangan.

Mazkur kitobning asosan O'zbekistondagi navoiyshunoslik sohasi yutuqlari asosida yozilgan ham alohida ahamiyatga ega. V.V.Bartoldning "Alisher Navoiyning siyosiy hayoti" maqolasi tarjimai holi hamda ayrim maqolalarni hisobga olmaganda, Afg'onistonda bugungi kungacha Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida yaxlit tasavvur beruvchi manba yo'q edi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu monografiyaning nashr etilishi ko'pmillatli Afg'oniston xalqi uchun muhim ilmiy manba vazifasini o'tashi shubhasiz.

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi mablag'lari hisobidan Kabul shahridagi "Voja" nashriyotida 500 nusxada chop etilgan. Ushbu asarni Afg'onistonda faoliyat ko'rsatayotgan adabiyotshunoslar va Alisher Navoiy ijodi bilan qiziquvchilarga beg'araz taqdim qilish mo'ljallangan.

Gulzoda SAFAROVA

TADQIQOT

SAHNADAGI MALIKUL KALOM:

FAZILAT VA KAMCHILIKLAR



O'zbek dramaturgiyasida Alisher Navoiy obrazining ilk badiiy talqini yaratilganiga 85 yil bo'ldi. Shu oraliqda Navoiy obrazining o'ndan ziyod talqinlari paydo bo'ldi: Vosit Sa'dullaning "Xuroson yulduzi", Boborahim Omonning "Navoiy birla Husayniy", Inoyat Maxsumovning "Navoiy Astrobodda", Shuhrat Rizayevning "Iskandar", Muhammad Alining "Navoiy va Boyqaro", Abdulla A'zamning "Dugohi Husayniy", Omon Muxtorning "Amir Alisherning dardi", Komil Avazning "Shoh bo'ldi ishq ichinda", Naim Karimovning "Guli va Navoiy", Iqbol Mirzoning "Samarqand sayqali" hamda "Alisherbek va Husayn" kabi yosh tomoshabinlar uchun mo'ljallangan tarixiy dramalari shular jumlasidan.

Afsuski, sanalanganlar ichida biror sahna asarini Izzat Sulton va Uyg'unning "Alisher Navoiy" dramasi tenglasha oladi, deb aytish mushkul. Buning sabablarini quyida izohlashga harakat qilamiz. Sovet davrida yaratilgan Navoiy haqidagi tarixiy dramalarda Navoiyga xos gumanizm xususiyatlariga kengroq urg'u berilgan. Mazkur davr dramalarida tarixiy haqiqatning yoritilishida ikki xil muammo mavjud edi. Birinchidan, mualliflar tarixiy haqiqatga ham davrning mafkuraviy prizmasidan qarashga majbur bo'lishgan. Ikkinchidan, tarixiy qo'lyozmalar, manbalarning hali to'la tadqiq etilmagan, materiallar kamligi, tarixiy shaxslar faoliyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning kamyoqligi qiyinchilik tug'dirgan.

Izzat Sulton va Uyg'un qalamiga mansub drama Alisher Navoiyning shoirlik, oshiqlik, saxovatpeshalik, metsenatlik, amaldorlik va gumanistik qirralarini namoyon etadi. Dramada feodal hukmdor va gumanist shoirning konflikti asosiy planga olib chiqilib, Boyqaro va Navoiyning munosabatlari asarda biroz keskinroq va bo'rttirib tasvirlangan. Navoiy obrazi ishonarli, hayotiy mantiqdan uzilmagan obraz o'laroq gavdalantirilgan, xarakterga xos xususiyatlar konfliktlar orqali yaqqol namoyon bo'lgan, donishmand shoir tabiatidagi halimlik va rahmdillik xislatlari bilan birga davlat arbobiga xos keskinlik, qattiqqo'llik va jahldorlik xarakteri ham ishonarli tarzda ko'rsatilgan.

Sovet mafkurasiga ko'ra, o'rta asrlarda progressiv va reaksiyon kuchlar kurashi jadal kechgan. "Alisher Navoiy" dramasi Navoiy va uning safdoshlari – progressiv, Boyqaro, Majiddidin kabi obrazlar – reaksiyon kuchlar sifatida taqdim etilgan. Navoiyning vazir bo'la turib, progressiv kuchga aylanishi, Boyqaroning murakkab xarakteri ko'rsatilishi qaysidir ma'noda vulgar sotsializm metodiga qarshi qat'iy zarba edi. Sovet davrida yaratilgan yana bir asar – Vosit Sa'dullaning "Xuroson yulduzi" dramatik dostonida lirik kayfiyat ustunlik qiladi, qahramonlarning lirik kechinmalari va tuyg'ulari yaxshi aks ettirilgan, biroq dramatik ziddiyatlar maromiga yetmagan, natijada na Navoiy obrazining, na boshqa personajlarning xarakterlari o'chilgan. Boborahim Omonning "Navoiy birla Husayniy" dramasi muallif yangi tarixiy materiallardan foydalangan. Navoiy hayoti davomida sezilarli rol o'ynagan Bobo Afzal, Soniy kabi obrazlarga badiiy bo'yoq berishga harakat qilgan, Navoiy – shunchaki vaziyat qurboni. Birovlarning gapiga ko'ra, u – ulug'. Lekin asarda biror ulug'vor ishini qo'yilmaydi.

Dramalarda Navoiy hayotining turli – bolalik ("Alisherbek va Husayn"), yoshlik, talabalik ("Xuroson yulduzi", "Samarqand sayqali", "Dugohi Husayniy"), vazirlik ("Alisher Navoiy", "Amir Alisherning dardi"), "Navoiy va Boyqaro", "Navoiy birla

Husayniy", oshiqlik ("Guli va Navoiy", "Amir Alisherning dardi", "Xuroson yulduzi", "Dugohi Husayniy"), qarilik ("Alisher Navoiy", "Amir Alisherning dardi", "Navoiy va Boyqaro") davrlari aks ettirilgan.

Mustaqillik davrida yaratilgan o'zbek dramalarida Husayn Boyqaro obrazi ijobiy obraz sifatida ko'rsatilgan, mualliflarning Navoiy hayoti va ijodiga oid ko'plab manbalardan xabardorligi, yangicha yondashuvga urinishi diqqatga sazovor. Xususan, "Amir Alisherning dardi" dramasi o'ziga xos "eksperimental drama" ekanligi, ko'proq Navoiyning ruhoniyati, ichki olami ko'rsatilgan, "Navoiy va Boyqaro" dramasi Navoiy obrazining ham she'riyatda, ham davlat boshqaruvidagi o'rnini, tarixiy davr sharoitidagi shaxs pozitsiyasining namoyon bo'lishi turli epizodlar va vaziyatlar orqali dramada yetarlicha asoslangani, "Samarqand sayqali" dramasi Navoiy hayotining o'zbek dramaturgiyasida yoritilmagan davri – Samarqanddagi hayoti ilk bor tasvirlangan va boshdan oxir she'riy yo'lda yozilgan bilan ahamiyatli.

Shuningdek, istiqbol davri dramalarida Navoiyning ulug'vorligiga ortiqcha ta'kidlar, madhiyago'ylik kayfiyati yetakchilik qiladi. Navoiy o'quvchidan nihoyatda uzoq, "Yerdan osmonga ko'tarilgan ilohiy inson" o'laroq ko'rsatiladi. Dramalardagi umumiy kamchiliklar: obrazlarda xarakter to'laigicha ochildirilmagan, personajlarning bir-biridan ajralib turuvchi jihatlari ko'rinmagan ("Amir Alisherning dardi"), pafos haddan ortiq ko'p, personajlar tilidan Navoiyning ulug'vorligi me'yordan ko'p ta'kidlangan, dramadagi tarixiy shaxslarning o'ylari, fikrlari, nutqlari bir xil, yaqqol xarakter sifatida ko'zga tashlanmagan ("Navoiy va Boyqaro"), yoshlik yillari tasvirlanganda ham Navoiy obrazi yoshiga nisbatan keksaroq mo'ysafidini eslatadi, navqiron Alisherda yoshlik shijoati ko'rinmaydi ("Samarqand sayqali"), obrazlarning o'zaro munosabati tadjirga ega emasligi kuzatiladi, Abu Said bilan Navoiy konflikti tasvirlanganda intriga zaifligi ko'zga tashlanadi ("Dugohi Husayniy"), ba'zi o'rinlarda mualliflarda haqiqiy dramaturgga xos badiiy mahorat yetishmaydi.

Ko'pgina talqinlar biroz ko'rgazmalilik, sun'iylik va qoliplashgan bir obraz darajasida qolib ketganday tasavvur uyg'otadi. Aksar hollarda dramaturgiya mezonlari chetda qolib, Navoiy siyosini ulug'lashtirish, har bir detalni ushbu maqsadga bo'ysundirish holatlari uchraydiki, bu hol asarning badiiy saviyasini tushiradi. Badiiy asarni ko'tarib turadigan birlamchi jihatlardan biri – tabiiylik, ya'ni yasamalikka xolilik ekanini unutmashlik lozim. O'zbek dramalarida Navoiy obrazi kamchilik va nuqsandan xoli siymo o'laroq taqdim qilinadi. Muallif asarda o'z qahramonini to'laigicha himoyaga olib, qahramoniga xato qilishga imkon bermaydi. Superqahramon – Navoiy barcha to'siqlarni yengib o'tadi, yuksak zakovat va chuqur mushohada egasi ekani qayta-qayta ta'kidlanadi, atrofidagi personajlar bosh qahramonning nufuzini o'quvchiga eslatib turish uchun "qurbon qilinadi". Ba'zi o'rinlarda, mualliflar nozik nuqtadonlik va so'zlarni saralab ishlatish mahorati evaziga o'quvchini ushbu ishtibohdan chalg'itib turadi.

Aslida Navoiy shaxsini ortiqcha pafos orqali sun'iy tarzda ulug'lash emas, uning ichki olamini o'quvchiga ko'proq tanitish asosiy maqsad bo'lmog'i lozim, deb hisoblaymiz. Ayni shu holat ham kelgusida Alisher Navoiyning yangicha badiiy talqinlariga zarurat borligini ko'rsatadi.

Xurshid ABDURASHID,
mustaqil tadqiqotchi

KAMOL ET KASB...

"Alisher Navoiy ensiklopediyasi" chop etildi



instituting O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'limi tomonidan 2021–2024-yillar mobaynida nashrga tayyorlangan. Qomusdan navoiyshunoslik masalalari, buyuk shoir asarlarining turli yillardagi nashrlari, ularning xorijiy tillarga tarjimalari, yurtimiz va jahon kutubxonalarida xazinalarida saqlanayotgan qo'lyozma hamda toshbosma kitoblari, shuningdek, rassomlik, haykaltaroshlik, teatr, kino singari san'at turlarida Alisher Navoiy siyosini aks ettirishiga doir maqolalar, ayrim lirik asarlarining ilmiy tahlillari ham o'rin olgan. Unda, eng avvalo, Alisher Navoiy yashagan davrda Xuroson va Movarounnahrda adabiy hayotdagi ijobiy yuksalishlar, ularni yuzaga keltirgan omillar haqidagi maqolalarga keng o'rin ajratildi. Bu esa yurtimizda kechgan ikkinchi Uyg'onish davri – Temuriylar Rennessansining hayotiy qudratini idrok qilish va unda Alisher Navoiyning tutgan o'rnini atroflicha mushohada etish imkonini beradi.

Kitobga Husayn Mirzo hukmronligi ostidagi Xuroson poytaxti – Hirotda yashab mehnat qilgan turkiy qavmlar, ularning o'ziga xos tabiati, urf-odatlar, saroyda tutgan mavqelari to'g'risida qator maqolalar kiritilgan. Shuningdek, ulug' shoir zamondoshlari, do'stlari, u bilan hamnafas ijod qilgan qalam ahli va ularning ijodiy yo'li borasidagi

izlanishlar adabiyot muhoblari uchun hamisha qiziqarli bo'lgan. Ensiklopediyada shoirning oilasi, qarindosh-urug'i, do'stlari, musohiblari, ustoz va shogirdlari, yaqinlari haqida ham ilmiy ahamiyatga molik ma'lumotlar yetarli.

Navoiy hazratlari bilan oramizda salkam olti asrlik masofa bo'lsa-da, u zotning hayoti va ijodini o'rganish borasida o'rtada bir bo'shliq yoki uzilish kuzatilmagan. Shoir hayotligidayoq Mixond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosify, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olim-u adiblar tomonidan boshlangan xayrli ishni Abdurauf Fitrat, Olim Sharofiddinov, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Vohid Abdullaev, Vohid Zohidov kabi yetuk navoiyshunoslar, Porso Shamchi Uyg'onish davri – Temuriylar Rennessansining hayotiy qudratini idrok qilish va unda Alisher Navoiyning tutgan o'rnini atroflicha mushohada etish imkonini beradi.

Ma'lumki, G'arb adabiyotshunoslari Navoiy hayoti va ijodiga XVI asrdayoq diqqat qaratib boshlagan edilar. Fransuz sharqshunosi Barthelemy de Erbelo de Molenvil, L.Buva, Yan Shmidt, Remi Dor, Jan-Pol Ru, Barbara Kellner Xenkel, Yurgen Paul, Y.E.Bertels, S.N.Ivanov, N.I.Konrad, Pave de Kurteyl, E.Braun, V.V.Bartold,

A.N.Samoylovich, B.Vahobzoda, Elias Jon Uilkinson Gibb, Edvard Braun, Maria Yeva Sabteli xonim kabi yuzlab xorijiy olimlarning navoiyshunoslikka doir tadqiqotlari xususidagi ahamiyatli ma'lumotlar esa ensiklopediyaning ilmiy qiymatini yanada oshirgan.

Hozirgi kunda Alisher Navoiyning 240 ming misradan iborat nazmiy asarlari va nasriy durdonalari Yevropa kutubxonalarida saqlanadi. Jahon fondlarida, xususan, Parij Milliy kutubxonasi, Kanadadagi Toronto dorifununi, Vena Qirollik kutubxonasi, Venger Fanlar akademiyasi, Britaniya muzeyi, Berlin, Venetsiya, Oksford universitetlari kutubxonalarida "Xamsa"ning to'liq va mazkur asar tarkibidan o'rin olgan to'rt dostonning alohida-alohida ko'chirilgan nusxalari; "Chor devon"ning ko'plab qo'lyozmalari; Navoiyning turli davrlarda ko'chirilgan asarlari asosida tartib berilgan kulliyot, shuningdek, "Lison ut-tayr", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi muluki ajam", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Devoni Foniyy", "Xamsat ul-mutahayyirin" asarlarining ko'p nusxali qadimiy qo'lyozmalari saqlanadi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ular orasida ulug' shoir hayotligi paytida ko'chirilgan va ulkan ilmiy qiymatga ega bo'lganlari ham ko'p. Ensiklopediyaga ana shu mavzularga oid maqolalar ham kiritildi.

"Alisher Navoiy ensiklopediyasi" ilm-fan, ijod ahli va keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Maqsud ASADOV,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi O'zbek
tli, adabiyoti va folklori
institut direktori o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori,
professor

BIR G'AZAL SHARHI

MA'NO OLAMIDAN OLINGAN G'AZAL

"Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok..."



Naqlga ko'ra, hazrat Navoiy "Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok" deb boshlanadigan o'ta mashhur g'azalning ilk baytini bir tilanchidan bir qancha oltin bahosiga sotib oladi. Majzub gado shoir eshigiga kelib, bu baytni o'qib, tilanchilik qilgan ekan. Bu haqda navoiyshunos olim, shoir Mirzo Nasriddin o'g'li Boqiy va shoir Sobir Abdulla ajib so'zlarni yozganlar.

Bu naql g'azalning favqulodda va o'xshashi yo'q asar ekaniga ishoratdir. O'ta baland narxga sotib olingani esa baytning g'oyat qimmatli, ma'no olamidani topilgan nodir xazina ekaniga ishorat bo'ladi. Zero, Navoiy devonida bunday benazir g'azallar va baytlar oz emas.

Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok, Kirpigim shabnam to'kulgan sabzadin namnokrok.

"Mening ko'ksim tongning yirtilgan ko'yagidan ko'ra ham chokroq, yirtiqroq. Kipriklarim esa ustiga shabnam to'kilgan maysadan ko'ra ham namroq, ho'lroq".

Tasavvufiy ma'noga ko'ra, bu manzara shoarning ma'naviy holi va martabasidan darakdir. Tun bo'yi tong-gacha ishq, xushu, umid va zoriq bilan yig'lab chiqqanidan alomatdir. "Subhning ko'yagi" iborasi Qur'oni Karimdagii: "Kechani (sizlar uchun) bir libos qildik" degan oyatga ishoratdir (Naba' surasi, 10-oyat).

Yig'i natijasi bo'lgan kipriklarning ho'lligi esa Qur'ondagi: "Shubhasizki, kuldiguvchi ham, yig'latuvchi ham U (Alloh)dir" degan ma'noga hamda: "Sizlar (g'afat ichra) kularsizlar-u, (gunohkor holingizga) yig'lamassizlar" degan tanbehga ishoratdir ("Najm" surasi, 43-, 60-oyatlar). Yana bu yig'i satri: "Agar sizlar men bilgan narsani bilganlaringizda edi, (bu dunyoda) ozroq kulib, ko'proq yig'lar edingizlar" degan hadisga ishoratdir.

Shoir aytmoqdaki, subhning ko'yagi chok bo'lib, tong oqarib, yig' qizarib ko'ringanidek, mening qizil qon bag'rim ham tong libosidan ko'ra chokroq bo'lgan ko'ksimning chokidan ko'rinayotir. Tun bo'yi maysalar ustiga to'kilgan mayin, mahzun shabnamlar tongda ravshanroq namoyon bo'ladi. Shoir tong orqali tungi unsiz yig'i holatini, botiniy kechinmalarini oshkor etmoqda.

Bu ko'ngul g'amnokidin to shodmon ko'rdu seni, Istaram har damki, bo'lg'ay xotirim g'amnokrok.

"Mening xotirim – ko'nglim g'amginoq bo'lgan sari sening tobora shodmonroq bo'lganini ko'rmoqdaman. Modomiki, sen o'z oshig'ing g'amidan suyunar ekansan, bas, sening yanada shodlanmog'ing uchun har nafas ko'nglim yanada g'amginoq bo'lishini istayman!"

Bu baytda "ko'kragi chokrok", "kipigim namnokrok" bo'lishining siri ochildi va "ko'ngli g'amnokrok" bo'lishi bilan mazmun vobasta rivojlandi.

Albatta, Navoiyning har bir majoziy ifodasida haqiqat bor. Dunyoda ko'p shod-u xandon, qahqaha-yu dabdaba bilan yashashda Haq taoloning rizosi yo'q. Siniqo'ngillik, g'aribhollik, g'amginoxirlik bo'lib yashashda, Yaratganning vajhi – zoti, diydorini istab, O'ziga yolvoruvchan va yig'lovchan bo'lishda Uning rizosi bor. Ayniqsa, sahar chog'larida istig'for aytib, ko'zyoshlari bilan yig'lashda xosiyat borligi kitoblarda aytilgan.

Ulug' valiy Fuzayl ibn Iyoz aytganlar: "Besh narsa badbaxlilik nishonidir: 1. Ko'ngil qattiqligi. 2. Ko'z

yoshlanmasligi. 3. Hayosizlik. 4. Dunyoga rag'bat aylamoq. 5. Tuli omol – uzun orzular (dunyo uchun bo'lsa).

Layli andin qo'ydi Majnun ko'nglida raxti g'amin, Kim, yo'q erdi manzil ul vodiya andin pokrok.

"Layli shuning uchun g'am yukini, qayg'u omonatini Majnunning ko'ngliga qo'ydi, bu hayot vodiysida, ishq sahrosida, tiriklik dashtida undan pokroq boshqa joy yo'q edi".

Raxt – yo'l yuki, safar anjomi degani. Bu o'rinda g'am yukini, qayg'u safarxaltasi, g'ussa omonati ma'nosida kelmoqda. Insoniy-majoziy ishq uchunki oshiq qalbi shunchalik pok bo'lishi shart bo'lsa, bas, endi ilohiy ishq uchun bandaning qalbi naqadar pokiza bo'lishi kerak!

Bir ma'shuqaki, muhabbat g'amining yukxaltasini qo'yish uchun shunchalik pokiza qalbn qidirsan, bas, unda har qanday nuqson sifatlaridan pok va munazzah bo'lgan ilohiy Zot o'z ishqini, zikrini har qanday qalbga solib qo'yaveradimi! Zero, "Ramuzul-ahodis" kitobida: "Alloh zikri Alloh muhabbatining alomatidir", degan hadis sharif keltirilgan. Pok narsa pok joyda bo'ladi.

O'yla mujgon xanjariga yopishubdur durri ashk, Kim, magar andin yatime yo'qturur bebokrok.

"Shuningdek, ko'z yoshlarining durri – inju marvaridlari kipriklar xanjariga shunday yopishib olganki, magar undan ham ko'ra bebokroq – qo'rqmasroq va bevoshroq bezori-yu chapani yo'qdir".

Sahrolarda bezorilar karvonlardagi oltin-kumush, durru gavhar boyliklariga qanday yopishsa, kipriklar xanjar ham ko'zyoshi durlarini qo'ldan bergisi yo'q. Layli, Majnun, vodiy zikr qilganini uchun bu bayt ham mantiqan hayotiy bir misolga bog'landi.

Aslida bu majozdan murod ma'rifatulloh natijasi bo'lgan yig'idir, tinimsiz ko'zyoshi to'kib yig'lash manzarasini aks ettirishdir.

Lablaringdin jon olurda barcha el quldur sanga, Jon berurda bir qulung yo'q bandadin cholokrok!

"Sening lablaringdan o'z o'lik tanasiga jon olishda – hayot topishda butun xalq senga quldur, asirdir. Lekin jon berishga kelganda men g'arib bandandagan ko'ra ham chaqqonroq – tayyorroq biror qulung yo'q. Zero hayot topish hammaga yoqadi, lekin jon fido qilish, jon berish oson narsa emas".

"Lab" mumtoz she'riyatda ko'p qo'llanadigan tasavvufiy istiloh bo'lib, mavjudotga vujudiy fayz yetkazuvchi rahmoniy nafas deyiladi. "Lab"dan murod kalom – so'zdir va rahmoniy nafasga ham ishoratdir, ashyolar vujudiga fayz bag'ishlaydi. "Lab" jonn quvvatlantiruvchi omildirki, shariat tilida "nafxi ruh" deyiladi. Shuningdek, lab oshiqqlarni fayz va xursandchilik bilan siylash, ilohiy olamdan nozil bo'lgan so'zlardir.

Lab – payg'ambarlarga Jabroil alayhissalom orqali Allohdan nozil qilingan so'z, ya'ni ilohiy kalom; avliyolarga esa qalb tasfiyasi, ya'ni qalbn musaffo qilish natijasida ilhom qilinadigan so'zdir (Faxruddin Iroqiy).

Va yana "labi jonbaxsh"dan murod borliq soyasidagi yo'qlikdir, deganlar. Ya'ni, nafasi rahmoniyga – ilohiy tajalliyarga ishoratdir.

Bu o'rinda "Lablaringdan jon olurda" degan ifodadan murod Payg'ambar alayhissalom so'ziga – hadisga shaydolik holidir. Chunki, Qur'onga ko'ra, hadis aslida vahiydir, havoyi nafs bilan so'zlangan so'z emasdir. Ya'ni, hadisdan bahramand bo'lib, tiriklik topishda butun xalq Payg'ambar alayhissalomga asir, tutqun. Lekin u zotni farzandi, ota-onasi va o'z nafsidan ham ortiq sevib, fido bo'lishda mendan chaqqonroq bir qulung yo'q, deydi Navoiy. Bu ifoda "Sahih Buxoriy"da vorid bo'lgan ushbu hadisga ishoratdir; Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: "Toki meni otangizdan ham, bolangizdan ham, barcha odamlardan ham ortiq yaxshi ko'rmas ekansizlar, birortangiz mo'min bo'la olmasizlar".

Odamiylik tufrog'in bersa fano yeliga charx, Ohkim, yo'qtur kishi ahli vafodin xokrok.

"Fano"ning ma'nosi mahviyat ekanini Navoiy ushbu baytda ravshan bildirgan:

Deding: fano nedurur? Muxtasar deyin: o'limak, Ki, sharhini tilasang, yuz risola bo'lg'usidur.

Taqdir, ajal butun odamiyat tuprog'ini yo'qlik shamoliga sovrusa, ya'ni vafot ettirsa, ohki, unda vafo ahlidan ham ko'ra xokroq, tuproqroq, ya'ni o'limga tayyorroq kishi yo'qdir. Hayotda o'zi tuproq bo'lib, xoksor bo'lib, yo'qlik shamoliga shay turgan toifa, avvalo, vafo ahlidir.

Vafoning turli irfoniy ma'nolari bor. Vafo iymon samarasidir.

Vafoning birinchi turi bandaning o'z ahd, o'z miyosida turishidir. Odam bolalariga hal jism ato etilmay turib, hazrati Odam alayhissalom sulbidan ularning ruhi chiqarildi; Haq taolo: "Alastu birabbikum?" – "Men emasmanmi sizlarning Rabbingiz?" – deb so'radi. Odam bolalarining ruhlari: "Qolu bala!" – "Ha, Sensan bizning Rabbimiz!" – deb javob berdilar ("A'rof", 172-oyat ma'nosi). Ana shu voqea "almiyosq kuni" – so'z, ahd-u paymon kuni deyiladi. Odam farzandlari jismi bilan yaralib, yerda yashaganidan keyin ba'zilar o'z so'zi – miyosida turib, ahli iymon – ahli vafo bo'ldi, ba'zilar inkor qilib, imonsiz bo'ldi. Haq taolo oqoh etadiki: "Darhaqiqat, Allohga bergan ahd va qasamlarini ozgina narsa (bo'lmish dunyoviy boylik)ga sotganlar borki, ana o'shalarga oxiratda hech bir nasiba yo'q. Alloh qiyomat kuni ularga so'zlamas, ularning yuziga boqmas va ularni poklamas. Ular uchun g'oyat alamli bir azob bordir" ("Oli Imron", 77-oyat).

Vafoning ikkinchi turi Odam farzandlarining barcha hayotiy muomalalarida, har qanday jarayonda o'z



so'zlari, ahd-u paymon va shartnomalariga rioya qil-mog'i, sadoqatli, oqibatli bo'lmog'idir.

Vafoning uchinchi turi insonning o'z murshidi komiliga qilgan bay'ati – ahd-u paymonida turishidir.

Bu bay'at barcha sahih tariqatlarda muridning piri komiliga intisobi va ahdga vafosi shaklida uzluksiz davom etadi.

G'azalning maqta'i matla'i bilan mantiqan bog'lanadi – yana jarohat, chok ifodalarga qaytiladi:

Necha uqlosang, Navoiy ko'ngli xaxminroq bo'lur, Ko'rmaduk zaxmeki, tikkan soyi bo'lg'ay chokrok.

"(Ey do'stim, tabibim, shifokorim!) Sen har qancha to'qib, tikib bog'laganing sari Navoiyning ko'ngli yana xaxminroq – jarohatliroq bo'lib boradi. Holbuki, tikkan sari tobora ochilib, chokroq bo'lib boradigan jarohatni hech ko'rmagan edik!"

"Uqla" – band, bog', to'qima (tikish) degani. Aruz vaznida ramal bahridagi shakllardan birining nomi ham "uqla" deyiladi. Raml (ramal esa she'rning o'n to'qqiz bahridan biri bo'lib, bo'ya to'qishdagi bir shaklga asoslangan. Chunki "ramal" deb lug'atda bo'ya (gilam, palos) to'qishni aytiladi. Shunga ko'ra "uqlamoq" bog'lamoq, to'qimoq, tikmoq degan ma'nodadir. Maqta' mantig'i va mazmuni ham shuni anglatmoqda.

Hazrat Navoiyning "Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok" g'azali abadiy o'lmas san'at namunasidir.

MUXAMMASLAR

"VASLIGA CHUN YO'Q NIHOYAT..."

Lablarim kunduz jaziya dashtidin qaqroqrok, Nolishim shom qushlarining zikridin dardnokrok, Ko'zlarim bemor tunidin subhiga mushtogrok, Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok, Kirpigim shabnam to'kulgan sabzadin namnokrok.

Istaram, bo'lsam xazon, to bexazon ko'rdu seni, Dam-badam dardim ko'paysun, to omon ko'rdu seni, Istaram, to yer bo'lay, to osmon ko'rdu seni, Bu ko'ngil g'amnokidin to shodmon ko'rdu seni, Istaram har damki, bo'lg'ay xotirim g'amnokrok.

Bo'lsa ko'ngil pok omonatlar uchun taxti amin, G'am uchun shundoq musaffo tutsa oshiq olamin, Bas, ilohiy ishq uchun lozim nechog' pokroq zamin, Layli andin qo'ydi Majnun ko'nglida raxti g'amin, Kim, yo'q erdi manzil ul vodiya andin pokrok.

Mos erurmi gul-gul-u durga dur-u ashkka ashk? – Bezarrar bexavf-u bebok ulfating topilsa koshk! Gul tikandin etmas or, husniga soqchi bo'lsa rashk, O'yla mujgon xanjariga yopishubdur durri ashk, Kim, magar andin yatime yo'qturur bebokrok.

Sevgidin ehson olurda bandilar mo'ldur sanga, Balki, olmoq qasdi birla g'ayri el eldur sanga, Jon berib, jon olmoq ammo ne go'zal fe'ldur sanga, Lablaringdin jon olurda barcha el quldur sanga, Jon berurda bir qulung yo'q bandadin cholokrok!

Qilmagay hargiz nazar ul kun havo eliga charx, Bas, fanoni etdi yo'l avval baqo ahliga charx, Xok etib sochgil meni ahli vafo yo'liga, charx, Odamiylik tufrog'in bersa fano yeliga charx, Ohkim, yo'qtur kishi ahli vafodin xokrok.

Necha berkitsang, ko'ngil ganji yana ko'proq bo'lur, Ochilib, olamga zulm o'tgan sari, porloq bo'lur, Tiksa ma'no og'zini, Mirzo, bu ish qandoq bo'lur? – Necha uqlosang, Navoiy ko'ngli xaxminroq bo'lur, Ko'rmaduk zaxmeki, tikkan soyi bo'lg'ay chokrok.

Aslimiz tufrog' erur, to'zdurma ko'p, Hasratim changin yana osurma ko'p, Yer-u ko'ngi chang ila to'ldurma ko'p, Javr o'qin xoki tanimg'a urma ko'p, Ko'kka bu tufrog'ni sovrurma ko'p.

Sharbati vasliga bormu qonmagim? Bir olov sirrin yetar o'rganmagim, Bas, na holat ikki o'tda yonmagim: Ishqdin basdur munga o'rtanmagim, Hajr barqi birla ham kuydurma ko'p.

Qoshlarin bil, ey dil, mehrobi nazar, Ko'zlarin de, ey til, oftobi nazar, Garchi ko'p olamda as'hobi nazar, Yuziga, ey ko'z, chu yo'q tobi nazar, Bas, aning sori boqib telmurma ko'p.

Yuzlaringdin vajhi pinhon istadim, Ko'zlarindin sirri osmon istadim, Qatra suvdin shavqi ummon istadim, No'shi la'lingdin agar jon istadim, Bu gunoh uchun meni o'turma ko'p.

Garchi sevgi hosili ozor emish, Har kishi muhtoji ishq-u zor emish, Odam-u Havvoga bul his yo' emish, Doimo rasmi muhabbat bor emish, Bizni ushbu jurm uchun yozg'urma ko'p!

Ko'rmadim ustozni san'at, juz firolq, Topmadim mulki qanoat, juz firolq, O'rtada yo'qdur masofat, juz firolq, Vasliga chun yo'q nihoyat, juz firolq, Bas, vafo ahlin qoshingdin surma ko'p.

Dildagi har yog'du – Xoliq amridin, Ham yig'i, ham ulgu – Xoliq amridin, Olganing har ulgu – Xoliq amridin, Hech ish o'lmas ayr-u Xoliq amridin, Ittijo maxluqqa kelturma ko'p!

Ey g'arib, nafsim, chekil, qilg'il sukut, Har tilak bo'lsa, yuzing Rabbingga tut, Har tilanchi bir tilab, o'tgay-ku zud, Ey gado, chun "Shayalilloh!" deding, o't, Aylabon ibrom, boqib turma ko'p!

Bas, bani Odam barobar, muhtaram, Ruhni Haqdin o'z'gaga etma qaram, Boq, azizlar ne demish, sho'rlik tanam: "Tut gadolig'ni, Navoiy, mug'tanam, Shohlar ollinda bosh indurma ko'p!.."




“...Alisher Navoiydek zotlar qirg'qa yaqin asarlari bilan ona tilimizning boshqa tillardan ancha boylig'ini, she'rda berilg'on mazmunini, musiqadagi latofatini “Mezonul avzon” va “Muhokamatul lug'atayn”lari bilan bildurg'on erdilar.
Ashurali ZOHIRIY



MA'NAVYI TARBIYA

DUNYOVIYLIK MOHIYATI

va uning ahamiyati xususida ayrim mulohazalar



"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha tamoyillar" deb nomlandi, ana shu nomlarning bari amalda bir mafkurani bildiradi.

Dinlar tengligi. Konstitutsiyaning 19-moddasi 2-bandida shunday so'zlarni o'qiy: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini (ta'kid bizniki – S.O.), e'tiqodi (ta'kid bizniki – S.O.), ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar". Demak, fuqaroning qaysi dinga mansubligi, e'tiqodi qandayligi uning huquqlariga mutlaqo daxl qila olmaydi. Bu yerda "din" va "e'tiqod" atamalarini aynan teng tushunchalar emas. Chunki e'tiqod nodiniy bo'lishi ham mumkin.

E'tiqod erkinligi. 33-moddaning 1-bandida "e'tiqod" tushunchasi xuddi shunday – ham diniy, ham nodiniy ma'nodagi dunyoqarashni anglatib kelgan: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod (ta'kid bizniki – S.O.) erkinligi huquqiga ega".

Din va dunyoviy davlat. Konstitutsiyaning dinga bevosita aloqador to'rt moddasida, boshqa masalalar qatori, bevosita davlat va din munosabatlariga daxldor to'rt pozitsiya ilgari surilgan.

1-modda 1-bandidayoq davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzumi turi e'lon qilingan: "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy (ta'kid bizniki – S.O.) davlat".

Konstitutsiyaning oldingi variantida bu band: "O'zbekiston – suveren demokratik respublika", tarzida edi. Yangilangan variantida unga "huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" sifatlari qo'shildi. Mazzumiz "dunyoviy" sifatini alohida sharhlashni talab etadi.

19-moddada ko'rganimizdek, barcha fuqarolar uchun bir xil huquq va erkinliklar berilishi kafolatlangan. Modomiki, shunday ekan, mamlakatda bir din vakillari uchun – boshqa, boshqa din vakillari uchun – boshqa qonun qabul qilib ham bo'lmaydi.

Dunyodagi musulmon mamlakatlar turlari. Davlat va din munosabatlari qanday hal etilganiga qarab musulmon mamlakatlari uchga bo'linadi: 1) islom davlatlari (Saudiya Arabistoni, Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi va boshqalar); 2) islom davlat dini deb e'lon qilingan mamlakatlar (Misr Arab Respublikasi, Livan, Marokash va boshqalar); 3) davlat dindan, din davlatdan ajratilgan mamlakatlar, ya'ni demokratik davlatlar (O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va boshqalar).

Mamlakatimizda davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi muvofiqlashtiradi. Davlat din ishlariga xalqaqil qilmaydi, din ham, o'z navbatida, davlat ishlariga aralashmaydi.

Dunyoviylik mohiyati. Ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan jamiyatimiz bugun

shunday murakkab bir jarayonga kirdiki, ehtimol, istiqbolga erishganimizdan buyon hech qachon fikrlar qarama-qarshiligi darajasiga ko'ra bunaqa holat yuz bermagandir ham. Chunki hozirgi paytda ijtimoiy tarmoqlar kuchayib ketdi. Ochiqlik, og'ziga kuchi yetgan ham, yetmagan ham... gapiryapti. Mayli, gapirsin. Bu ularning huquqi. Demokratiya. Biroq demokratiya, fikr erkinligi, qarama-qarshi mafkuralar kurashi degani boshboshdoqlik, provokatsiya, konstitutsion tuzumga ochiqchasiga zarba berishni anglatmaydi. Xullas, odamlar o'rtasida qaltis savollar ko'tarilayotgani, ba'zan xato pozitsiyalar ilgari surilyapti.

Lekin, afsuski, bu savollarga doim ham xolis javoblar berilayotgani, xato pozitsiyalar o'z vaqtida va yetarlicha inkor etilayotgani yo'q.

"Dunyoviy davlat" degani – "din davlatdan, davlat dindan ajratilgan, din davlatning, davlat dinning ichki ishlariga aralashmaydi, davlat qonun chiqarayotganda biror dindan so'rab o'tirmaydi" degani. Bu "ikki karra ikki – to'rt" deganday hammamizga ma'lum bir pozitsiya hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrda bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida: "Mana, biz Asosiy qonunimizdagi fundamental prinsiplardan kelib chiqib, Dunyoviy davlat konsepsiyasini ishlab chiqayapmiz", dedi. So'ng esa buning zarurati ham bayon etdi: "O'zingiz ko'ryapsiz, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba'zan, hatto, mamlakatimizning o'zida ham Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilmoqda". Bunday pozitsiyalarga qarshi xolis javoblar qaytarilishi, bunda davlat va xalqning manfaatlaridan kelib chiqib, ya'ni qonunlar va milliy g'oyaga tayangan holda hukmron pozitsiyaning har kuni, har yerda aytib turishimiz mamlakat tinchligi va xalq osoyishtaligi uchun zarur zarur vazifa hisoblanadi.

Dunyoviylik "dahriylik" degani emas. Shu bois bizda insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi.

Davlat o'z vakolatini hech bir dinga berib qo'ymaydi. Islom shariatini islom davlatlari uchun asosiy qonun vazifasini o'taydi. Yoki bunday davlatlar konstitutsiyasi aynan shariat asosida yoziladi. Ammo dunyoviy davlat hech ham dinga suyanish majburiyatini bo'yniga olmaydi.

Jamiyatning ayrim masalalari yechimida dinimizda boshqa, Konstitutsiyamiz va uning asosidagi qonunlarimizda boshqa pozitsiyalar belgilangan. Bunday holatlarda davlat hech bir din oldida hisobdor emas. Bunda, albatta, davlatning qonuni asosida ish ko'riladi. Davlat o'z vakolatiga kiradigan hech bir masalaning yechimini yoki bu dinga berib qo'ymaydi.

35-modda quyidagicha jaranglaydi: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har

kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'q o'ylamaydi".

Buning hayotdagi in'ikosini ko'rish uchun uzoqqa borish shart emas. Ishga, o'qishga, nikohga kirayotganda hech kim dinga munosabatini so'ramaydi, anketa to'ldirayotganda ham bu savol yo'q, mamlakatimizda Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tgan 16 ta diniy konfessiya faoliyat olib boryapti va hokazo. Davlat uchun barcha dinlarga teng huquq va erkinliklar berilgan.

35-moddaga ko'ra, din – har bir fuqaro uchun shaxsiy masala. Shunday ekan, qanday qilib aholining muayyan toifasi e'tiqodi bo'lgan din qoidalarini hamma uchun majburlab joriy etamiz? Axir, har qanday qonun majburiy ijroni talab etadi.

Ko'rganimizdek, 71-moddaga binoan, jumladan, bizda diniy ruhdagi partiya tuzish qat'ian taqiqlanadi: "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, O'zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy (ta'kid bizniki – S.O.) adovatni targ'ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog'lig'iga, ijtimoiy axloqga tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlarining, shuningdek milliy va diniy belgilariga ko'ra siyosiy partiyalarining, harbiylashtirilgan birlashmalarining tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va birlashmalar tashkil etish taqiqlanadi. Shuning uchun ham diniy-ekstremistik maqsadlarni ko'zlagan siyosiy kuchlar va harakatlar konstitutsiyaviy jihatdan taqiqlangan, ya'ni noqonuniy harakatlar hisoblanadi va ularga qarshi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar kuchi bilan qonuniy ravishda kurash olib boriladi.

75-modda davlat va din munosabatlarining tub mohiyatini anglatadi:

"Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi.

Davlat qonunda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi".

Davlat va din munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar.

Konstitutsiya davlat va din munosabatlarining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Biroq bu yo'nalishlarni hayotga tatbiq etish uchun qabul qilingan kodeks va qonunlarning umumiy soni 30 ga yaqinlashadi.

O'zbekistonimizda amalda ko'p mafkuraviy jamiyatga o'tildi. Ammo o'tish jarayoni tugagani ham yoki to'xtab qolgan ham yo'q. Mafkura bor ekan, manfaatlar to'qnasha boshlar ekanmi, bu jarayon, umuman, to'xtamaydi. Chunki har qanday yangilik – bugun uchun yangi. Ertaga esa ... eskirib qolishi hech gap emas.

16-noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni. Bu sana bizda ham nishonlanadi.

Konstitutsiya bilan kafolatlangan e'tiqod erkinligi va dinlararo bag'rikenglik O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo'ladi.

Ogohlikka da'vat. O'zbekistonimizning dunyoviy davlat ekanini unutishga ham, u bilan hisoblashmaslikka ham hech kimning haqqi yo'q. Masalani shunday jiddiy va keskin tarzda qo'yish vaqti allaqachon kelgan.

Aks holda, keyin ko'p-ko'p fuqarolarimiz ongida o'rmasib qolgan yo' qarashlarni siqib chiqarishning imkoni bo'lmasligi mumkin.

Sultonmurod OLIM, filologiya fanlari doktori, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti "G'oya-inkubator" loyihasi eksperti



SHAMOLDAN QUVVAT OLIB...

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu borada so'z ketsa, ko'pchilik birinchi navbatda quyosh panellarini tilga oladi. Negaki, yil sayin quyosh panellarini xonadon va ish joylariga o'rnatish ommalashib boryapti. Endilikda uning afzalliklari va shu bilan birga kamchiliklarini ham bilmaydigan odam topilmasa kerak. Biroq ommalashib borayotgan quyosh panellari qatorida shamol elektr manbalari haqida negadir kam gapiriladi.

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroym Yusupov o'zining mashhur she'rlaridan birida: "Qoraqalpoq, Xorazmdan esar Jayhun shamollari" deya baralla kuylagan edi.

Ha, sevimli shoirimiz madh etgan Qoraqalpoq va Xorazmdan esgan shamolning xosiyati boshqacha. Bu yerlarda yil-o'n ikki oy Bekobod yoki Qo'qon shamolini ortda qoldirib yuboradigan kuchli shamollar esib turadi. Goho u quturib bo'ron va dovullarga aylanishi ham bor. Ustyurti-ku aytmay qo'ya qoling, u yerda dovul tursa, yerni ters to'ntarib yubormasikini, deya yurak hovuchlab qolasan kishi.

Quyosh nurlari singari g'ir etib esgan mayin shabada yoxud tezob yelgan bebosh shamol ham ona tabiatning bizga in'om etayotgan tuganmas ne'matidir aslida. Ulardan unimli foydalana olish esa insoniyatning aql-zakovatiga bog'liq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati shamol tezlignini elektr manbayiga aylantirish uchun juda qulay hudud. Ayniqsa, Ustyurt kengligi, Pitnak qirlari va Qoraqum cho'lida shamol energiyasidan foydalanish uchun juda qulay imkoniyatlar mavjud. Bu yerlarda shamol elektr stansiyalarini qurish va aholini arzon elektr bilan ta'minlash kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Shamol elektr stansiyasining afzalliklari shundaki, uning uchun na kechaniq, na kunduzning farqi bor, g'ir etgan shabada bo'lsa, bas, ishlayveradi.

Quvonarli jihati mamlakatimizda muqobil energiya sohasini rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yilmoqda. Fikrimiz isboti sifatida Navoiy viloyatining Tomdi tumanida barpo etilgan shamol elektr stansiyasini keltirishimiz mumkin. Ushbu loyiha mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalariidan foydalanishni kengaytirish va energiya mustaqilligini ta'minlash bo'yicha strategik chora-tadbirlardan biri sifatida ko'rilmog'da. Shamol elektr stansiyasining umumiy quvvati 500 megavattli tashkil etadi. Bu O'zbekistonning shamol energetikasi sohasidagi eng yirik loyihalardan biri bo'lib, kelajakda mamlakatning energiya balansini uchun katta hissa qo'shadi. Ushbu loyihaning birinchi bosqichida 250 megavatt quvvatga ega shamol turbinalari o'rnatilishi rejalashtirilgan. Loyiha qiymati qariyb 600 million AQSh dollariga teng bo'lib, bunga xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlarning kredit mablag'lari jalb qilingan.

Ekologiya sohasi vakillarining fikriga ko'ra, mazkur shamol elektr stansiyasi to'liq quvvatda ishga tushirilgan taqdirda har yili 1 million tonnaga yaqin karbonat angidrid gazlari atrof-muhitni zararlashining oldi olinadi. Bu esa issiqxonaga gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishga va atmosferani toza saqlashga yordam beradi.

Ushbu markazning qurilishi jarayonida yuzlab mahalliy ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda. Loyihaning ekspluatatsiya bosqichida esa doimiy ravishda 50 dan ortiq malakali texnik va injenerlik ish o'rinlari tashkil etiladi.

Tomdi shamol elektr stansiyasi Navoiy viloyatining sanoat infratuzilmasini tubdan o'zgartirib, elektr energiyasi taqsimotini bartaraf etishi va hududiy rivojlanishga hissa qo'shishi shubhasiz. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi texnologiyalarni mahalliy lashtirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, mazkur shamol elektr stansiyasi boshqa muqobil energiya loyihalari, jumladan, Navoiy viloyatida qurilgan quyosh fotoelektr stansiyalari bilan birga birlashgan-mushtarak energiya tizimini shakllantiradi. Bu esa tarmoq barqarorligini oshiradi va energiya uzatishda uzilishlarni kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining qayta tiklanuvchi energiya manbalariiga oid strategiyasiga ko'ra, 2030-yilgacha mamlakat energiya tizimida shamol va quyosh elektr stansiyalarining ulushini 25 foizga yetkazish maqsad qilingan. Tomdi tumanidagi shamol elektr stansiyasi ushbu maqsad sari yo'l ochuvchi yirik loyihalardan biri sifatida e'tirof qilinmoqda. Kelgusida ushbu stansiya nafaqat hududiy, balki milliy iqtisodiyotimizning energetik mustaqilligini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. O'z navbatida, bu mamlakatning "yashil" iqtisodiyotda raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi.

Erpo'lat BAXT

O'ZBEK TILIM – O'Z TILIM



Ali NASIRLI,
O'zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarining "Do'stlik" ordenlari sohibi:

– Men Ozarbayjonda tug'ilganman. Tahsilni ham ozarbayjon tilida olganman. 1979-yil O'zbekis-

tonga kelganimda o'zbek tilini bilmas edim. To'g'ri, bunga qadar ijod bilan shug'ullanib, ozarbayjon tilida ancha she'rlar bitganman. She'rlarim tez-tez gazeta va jurnallarda chiqib turardi. Lekin o'shanda kun kelib o'zim bilmaydigan o'zga bir tilda ijod qilish xayolimga ham kelmagani rost.

Oliy ma'lumotli huquqshunos bo'lganim sababli, 1979-yilda meni Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasiga tergovchi etib tayinlashib, "Tilniyam, ishniyam o'rganasan", deyishdi. Haqiqatda ham bir necha oy davomida o'zbek tilida nafaqat gaplashishni, balki o'qib, yozishni ham o'rganib oldim. Lekin, baribir, xatolarim ko'p edi. Ko'pincha ikki tildagi so'zlarni aralashtirib qo'llardim.

Yillar o'tgan sari men o'zbek tilini bir tergovchi uchun kerak

bo'lgan darajada puxta o'zlashtirib oldim. Kamiga ishdan ortib, bu go'zal tilda she'rlar mashq qila boshladim. Ilk bor o'zbek tilida yozgan ("Majnun" va "Qish kechasi") ikki she'rim 1987-yilda Zomin tumanidagi "Sharq tongi" gazetasida chop etildi. Bu o'zbek tilida ijodiy faoliyatni jiddiy olib borish uchun bir turtki bo'ldi.

Yangi kelgan paytlarim Sirdaryo adabiy muhitidan deyarli xabarsiz edim. Keyinroq hududdagi shoir-yozuvchilar, jurnalistlar bilan tanishdim. Ular bilan qadrdon bo'lib ketdik. Ijodiy davralarda ulardek o'zbekcha she'rlar aytidim. Xuddi ona tilim – ozarbayjonchadek go'zal va latif bo'lgan jozibador bu tilni nihoyatda sevib qoldim. Chunki bu tilda ulug' Navoiy ajiy va barkamol g'azallar

bitgan, ustoz Shayxzoda ham qator asarlar yozgan. Ayniqsa, Maqsud Shayxzoda o'zbek tilini puxta o'rganib, chet tillardan o'zbekchaga dur-dona asarlarni tarjima qilgani haqidagi ma'lumotlar menga qanot bag'ishladi. Men ham o'zbek tilida "Ko'hna kuy" nomli she'riy doston bitdim. Yozgan she'rlarimni jamlab, doston bilan birga kitob holda chop etmoqni o'yab qoldim.

Niyatimni viloyatdagi ko'ngil yaqin ijodkor do'stlarimga, ustozim, shoir Bahor Xolbekovga bildirdim. Qalamkash do'stlarim bu g'oyamni qo'llab-quvvatladilar. Shu tariqa 1999-yilning bahorida o'zbek tilidagi ilk kitobim – "Ko'hna kuy" dunyo yuzini ko'rdi. To o'shandan beri yana ko'plab kitoblarim chop etildi.

Ilk bor O'zbekistonga kelgan paytlarimni eslasam, o'zim bilmagan joylarda qanday yasharkanman, musofir holimda oilamning taqdirini kechar ekan, degan o'ylar ko'nglimga oxirsiz xavotir-u hadiklar solgani haqida o'yab ketaman. Shukurki, o'zbek xalqining bag'rikengligi, o'zbek tilining nafis bir tarovati meni o'shal xavotirlardan, hadiklardan butkul xalos eta oldi.

Shoir va mutarjim sifatida katta ijodiy rejalar qilganman. Nasib etsa, ozarbayjon va o'zbek xalqlari o'rtasidagi adabiy do'stlik ko'prigini yanada mustahkamlashga hissa qo'shugulik tarjima asarlar soni va sifatini oshirmoqchiman.

Dilmurod DO'ST yozib oldi.



“JADIDLAR. TURKISTONGA MAKTUBLAR” TURKUMIDAN

Boshlanishi 1-sahifada.

Toshkentlik ma'rifatparvar va saxiy inson Sherahmadboy Germaniyada o'qigan talabalarga homiylik qilish bilan birga, 17 yoshli qizi Saida, o'g'li Nasriddin va jiyani Fuzayllarni ham oliy ta'lim olish uchun Germaniyaga yo'llagan edi... Saida 1937-yildan Turkiyaga kelib muallimlik qilgan.

Ikkinchi maktubegasi Germaniyaga o'z tashabbusi bilan oliy ta'lim olish uchun borgan ilk qaldirg'och, jadid muallimi Abduvohob Murodiydir. Abduvohob Murodiy 1901-yil Toshkentning Egarchi mahallasida tug'ilgan. 1913-yil "Xoniya" va 1914-yil Munavvar qorining "Namuna" maktabini bitirgan. O'zi ham dastlab, 1916-1917-yillarda Toshkentdagi "Hayot" maktabida dars beradi. 1917-1919-yillar mobaynida Boku shahridagi ziroat bilim yurtida o'qigan. Toshkentga qaytib yana o'qituvchilikni davom ettirib, Eski shahar "Muallimlar jamiyati"ga yetakchilik qiladi. 1919-yil Abduvohob Murodiy Toshkent tara-



qiyparvarlari va "Muallimlar jamiyati" ko'magi bilan xorijda tahsil olish maqsadida yana safarga o'tlanadi. U Afg'oniston, Turkiya mamlakatlari orqali Germaniyaga yetib boradi. 1921-1926-yillarda Berlindagi Qish-

loq xo'jaligi akademiyasida o'qib, Yevropa ta'lim muassasasida oliy ma'lumot olgan birinchi o'zbek agronomiga aylanadi. 1927-yil vataniga qaytgan Abduvohob Murodiy Shreder nomidagi Bog'dorchilik

ilmiy-tekshirish institutida direktor muovini, O'rta Osiyo davlat universiteti qishloq xo'jaligi fakultetida o'qituvchi vazifalarida ishlay boshladi. Shuningdek, u mashhur qozoq adibi Muxtor Avezov, akademik Borovkovlar bilan sharq fakultetining turkiy-shunoslik bo'limida ham ilmiy xodim sifatida yoshlarga ta'lim bergan. Abduvohob Murodiy tinimsiz ilmiy va amaliy mehnat faoliyati bilan bir paytda matbuot sahifalarida ham tez-tez chiqish qilib turdi. O'zining Germaniyadan keltirgan kitoblari asosida qator darslik va o'quv qo'llanmalari yaratdi.

O'zbekiston hukumatining o'sha paytdagi rahbarlari Fayzulla Xo'jayev va Akmal Ikromov Murodiy nomzodini bir necha marta Yer ishlari komissarligiga tavsiya etadi. Bu esa ayrim "qizil imperiya"cha siyosat tarafdori bo'lgan kimsalarga yoqmadir. Ular yosh o'zbek agronomining ish jarayoniga turli bo'hton bilan qarshilik ko'rsatdilar. Shunga qaramay, u qisqa

muddatda O'zbekiston qishloq xo'jaligi tajriba stansiyasida ko'pgina iqtidorli shogirdlarni yetishtirib berdi. Toshkent tumani Achchi ovulida o'z tashabbusi bilan tuzilgan "Qizil namuna" jamoa xo'jaligida Germaniyada o'rgangan ilmlarini ishga solib, o'sha davr uchun misli ko'rilmagan iqtisodiy yutuqlarni qo'lga kiritadi.

Abduvohob Murodiy 1930-yil 25-aprelda OGPU tomonidan qamoqqa olindi. Xullas, mustabid tuzum hech biri isbotini topmagan ayblovlari bilan endigina 30 yoshni qarshilagan yetuk mutaxassisning hayotiga zomin bo'ldi...

Quyida ilk bor e'tiboringizga havola etilayotgan maktublarni nafaqat Sizning tarixiy ilmlaringizni boyitadi, balki jadid maktablari yetishtirgan talabalarning tafakkur dahosi nechog'li yuksakligi, ularning Vatan, millat taraqqiyoti uchun qanchalik jon kuydirganligi haqida hikoya qiladi.

Bahrom IRZAYEV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori



XOTIRA AZIZ

QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Muhammad Hojibobo Rizayev – 1889-yili Namangan shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1919-yildan 1923-yilgacha RKP(b) a'zosi bo'lgan. 1920-yili sentyabrda Bokudagi Sharq xalqlari s'yezdiga vakil bo'lib borgan. 1925-yili Sovet hokimiyatidan norozi bo'lganlarning hisobini olish va ularni aksilinqilobiy tashkilotga jalb qilish bo'yicha ish olib borgan. 1927-yili Toshkentga kelib Munavvar qori Abdurashidxonov bilan uchrashgan. 1931-yildan 1936-yil 29-dekabr gacha surgunda bo'lgan, surgundan qaytgach, doimiy ravishda sovetlarga qarshi targ'ibot olib borgan. Masalan, 1937-yil boshlarida "Internatsional" arteliga yaqin joyda turib sovet hokimiyatining O'zbekistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini qoralab chiqqan. 1937-yil 30-iyulda shahar moliya bo'limi inspektori bilan bo'lgan suhbatda sovet hukumatini ayblagan. Hukumat konstitutsiyaga xilof ish tutgani, ongli ravishda aqlli, savodli kishilarni O'zbekistondan yo'q qilayotganini aytgan. 1937-yil avgustda "xalq dushmani" deb qoralangan Fayzulla Xo'jayevning ishdan olinishiga norozilik bildirgan. 1937-yil 19-avgustda qamoqqa olingan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi "uchligi" tomonidan 1937-yil 13-noyabrda otilgan. 1958-yil 31-mayda reabilitatsiya qilingan.

Rustam Islomov – 1899-yili Toshkent shahrining Tarnovboshi mahallasida tavallud topgan. 1909-1917-yillarda xususiy do'konda ishlagan. "Sho'royi islom", "Milliy ittihad" a'zosi bo'lgan. O'zbekiston SSR Yer ishlari komissari bo'lgan. Tarixiy hujjatlardan birida u "Bu yerda Moskva emas, biz xo'jayin" degani va markaz talabini rad etgani uchun unga "burjua millatchisi" degan ayb qo'yilgan. Hatto unga "o'ng trotskiychi" guruh a'zosi degan tamg'a bosilgan. O'zSSR Xalq komissarlari soveti raisi Fayzulla Xo'jayev bosh bo'lgan "O'n sakkizlar" guruhi a'zosi sifatida O'zSSR Jinoyat kodeksining 57-, 58-, 63-, 64-, 67-moddalari bilan ayblov qo'yilib, SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda 1938-yil 4-oktyabrdagi sayyor sessiyasida 52 kishi otuvga hukm qilingan. Hukm o'sha kuniyoq ijro etilgan.

Hidoyat Inoyatov – 1913-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Yer-suv islohoti davrida uning ota-onasi quloq qilingan. Sovet hokimiyatiga qarshi oshkora muxolifatda bo'lgan. 1927-yildan komsomol a'zosi bo'lgan. 1936-yil fevralida "Milliy istiqlol" aksilinqilobiy tashkilotiga yoshlar uyushmasi tomonidan jalb etilgan. 1936-yili Toshkent shahar Kuybishev rayoni yoshlar komiteti kotibi o'rinbosari sifatida boshlang'ich komsomol tashkiloti ishini izdan chiqargan. Jadid Usmonxon Eshonxo'jayev, trotskiychi Novikov, Valiyev va boshqalar tomonidan aksilinqilobiy tashkilotga jalb qilingan. U SSSR Oliy sudi sayyor harbiy kollegiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig'ilishida otuvga hukm qilingan. Hukm o'sha kuniyoq ijro etilgan. Hidoyat Inoyatov 1957-yil 26-sentyabrda reabilitatsiya qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor
Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi
(Davomi kelgusi sonida).

Berlin, 1-avgust 25-sana

Qadrlil do'stim Akmal!
Bundan uch yarim yil avval senga juda muhim bir do'stimizning hayoti ila aloqador bo'lg'on masala haqqida murojaat qilish edim.

Sening iltifoting va durusliging soyasida bu ish yaxshi bir sur'atda hal edilib, buyuk bir falokatning oldi olinmish edi. Uch yarim yil so'ng'ra yana senga umumiy va mamlakat manfaati nuqtayi nazaridan muhim bir ish haqqida murojaat qilaman. Tasodifki, bo'qki bundan sana uch yarim yil avval ham sen yana bu kungi yeringda eding. Bu, albatta, bir hol xayr bo'lsa kerak. Ul zamon ishlaringni ko'pligiga qaramasdan maktabimni kamol rag'bat-la o'qush va jirosiga tashabbus qilinish eding. Bu daf'a ham ishlaringni haddan tashqariligiga qaramasdan maktabimni diqqat-la o'qub, bizga madad qo'li cho'zmog'ingga imonim qadar ishonaman. Va masalani keng ko'z ila muhokama qilmog'ingni so'ng darajada so'rayman.

Masala mana shundan iboratdir: Mayerzon o'rtoq bul yerga mufattish bo'lib kelgandan so'ng talabalikni istadigi qadar taftish qilmog'iga qo'limizdan kelgan qadar yordam etmoqqa qaror berduk va to'rt ko'z ila taftish kunini bekorga kutib yotdik. Mayerzon o'rtoq bir qancha vaqt istirohat ila ovvora bo'lganidan so'ng ish boshladi. Ammo, taftish ishiga emas, balki tijorat ishiga. Bir tarafdan bizga xirmon-xirmon va'da qilib, ikkinchi tarafdan safordadagi bir qancha o'rtoqlari ila birlashub O'zbekiston talabaligi qo'lingdagi uyni sotmoqqa qaror bermish. Bu xabarni talabalar eshitkach Mayerzon ila bir majlis yasab uyni talabalar qo'linda qolmog'i lozimlig'ini iqtisodiy va siyosiy tomondan isbot qilib, uyni sotmasligini iltimos etdilar va qo'lingdagi mandatda bunday narsa bo'lmagani uchun juda bo'lmasa O'zbekiston hukumatidan so'rab so'ng'ra sotmoqqa qaror berdilar.

O'rtoq Mayerzon bu qarorga rozi bo'lib, imzo qilg'on bo'lsa ham orqadan uyni sotmoq uchun yana harakat qilib yurar edi. Bu tashkilot to'g'risida hukumatimizdan javob kutar ekan, bundan ikki kun avval Mayerzon komissiyaga yana ispiska topshirdi. Bu ispiskada yozilg'on 39 talabaning O'zbekistonga qaytmog'iga qaror berildigini va bularni har holda o'n besh kun ichida jo'nab ketmog'ini shart qo'yadir. Uy masalasi masalaning yo tarafi bu talabalarning nohaq bir holda qaytarilmoqlari ishing mag'zini tashkil qiladi. Mana mening senga qiladurg'on murojaatim shul 39 talaba to'g'risindadir. Bu qaytdadig'on talabalar ichinda o'zim bo'lmag'onim uchun bu murojaat xolisona bir murojaat bo'lib, mamlakatimiz manfaati nuqtayi nazaridan muhokama etdigimiga ishonang kerak.

Bu 39 talabaning qaytarilmog'i to'g'risida O'zbekistonda bir qaror berildimi? Bu bizga noma'lum. Bundagi talabalik siyosiy jihatdan O'zbekiston istiqlolni Ovrupo burjua olami ila mazlum millatlariga isbot qilib, ko'zlariga ko'rinish turgan bir haykal edi. Bu yerga to'plangan sharqning turli tarafidan kelgan o'quvchi va sayyohlar bizni ko'rar va sho'rolar ittifoqining sharq siyosatini biz ila o'chlarlar edi.

Bu haykalning yo't bir qo'l tarafidan bir onda yiqilmog'i siyosiy yo'limiz jihatidan o'rmi to'ldiril-maydurgan bir zoye bo'lishligi ma'lumdur. Burjua ta'siri ostinda qolg'onlar Rossiya matbuotidagi xabarlarni "propag'anda" deb o'ylagan narsaga bundagi talabalik jonli bir misol bo'lib qalbgohlariga ta'sir qilmoqda edi.

Bugun har tarafda O'zbekistonning yosh olimlarga, mutaxassislariga, ovrupa texnikasi ila musul-lahangan ishchilarga muhtoj bo'ldig'ini dod-faryod qilib so'ylaymiz. Shunday muqaddas shiorlarni ko'tarib yurganda har biri O'zbekiston uchun jon va qon darajasida muhim muassasalarda o'qub

yotqon, bitirmaklariga oz zamon qolg'on talabalarni birdan maktablaridan uzib olmoq na demakdir?

Ikki yarim yil ichinda favqulodda g'ayratlar ko'rsatub maktablarini bitirmoqqa yaqinlashub qolg'on o'rtoqlarni bundan olub qay yerga boramiz? Ittifoqda bir maktabga yerlashdirilsa ham to til o'rganib bir maktabga kirgunlaricha munda bir mutaxassis bo'lib ishga boshlarlar edi. Bu bechoralarni umrini zoye qilib yurmakda na ma'no bor?

To'g'risi, bularni qaytarmoqdan hukumatning na iqtisodiy foydasi bor, na-da siyosiy.

Biz bir ispiska tuzib ba'zi o'rtoqlarni qaytarmoqg'a har zamon tarafdormiz. Biz oz tadqiqot natijasida ispiska tuzilib, 1. To'rt sanadan ko'b munda qolmoq majburiyatida bo'lg'onlarni 2. Yaxshi cholishtirilmaganlarni qaytarmoqg'a har zamon tarafdormiz. Ammo hozirgi kabi Mayerzonning o'rtoqlarining o'g'lini olib qolib, boshqa bechoralarni talabalikning guli darajasida bo'lganlarni qaytarmoqg'a hukumatimiz ham tarafdor bo'lmasa kerak. Misol uchung'ina qaytdadig'on talabalardan bir qanchasini yozub o'taman. Albatta, bu misol ispiska haqqida senga bir fikr bersa kerak.

1. Sattor Jabbor o'g'li – bu otashli yosh xotin bolasi ila ota-onasini qonli yoshlar ichinda tashlab chiqg'on, Botuning yaqinlaridan qahramon bir yoshdir. Bu yerga kelganidan so'ng bir yilda nemis gimnaziyasini bitirib, Hadelberg dorulfununining kimyo sho'basiga kirdi va anda juda muvaffaqiyat-la to'rtinchi kursda davom qiladur. Yana bir yarim yil so'ng'ra kimyogar bo'lib chiqadur. Boshqa bir bolaning otasi Mayerzonning o'rtoqi bo'lgani uchun bunga bir so'z ham so'ylanmag'an.

2. Darmshtadt dorulmuallimotinda 3 qizimiz bo'lib, bulardan ikkisi Xayriniso Majidxon qizi ila xivalik Maryam Sultonmurod qizi maktabni kelajak kuzda bitiradirlar. Saida esa qizlar gimnaziyasini kelajak sana bitiradi.

3. Mayelbur muhandis maktabinda 5 talabamiz bo'lib bulardan biri qarindoshing Fuzayl Sherahmad o'g'lidir. Fuzayl favqulodda cholishib, butun maktabda ism chiqorg'on. Bu yosh bu kun to'rtinchi kursda bo'lib, bu ham bir yarim sana so'ng'ra muhandis bo'lib chiqdior.

4. Mualliming bo'lg'an Ahmad Shukuriy.

5. Oliy maktabni bitirmagiga olti oy qolg'on Vali Qayumdur.

Xulosa, shunday aslo aqlga sig'maydurgan bir ispiska hozirlangandir. Agarda bu ispiska Mayerzonning fikri ila ijro qilib ketsa o'zbek maorifi va yangi ko'karmakda bo'lg'on o'zbek madaniyati uchun buyuk bir jinoyatdir. Mana bu jinoyatning oldini olib bu to'g'rida hukumat tarafidan bir qaror chiqorub yubortuv sening kabi yoshlarning vazifasi bo'lsa kerak. Agarda bu vazifani ham ustingga olub shul ishga kirishsang, Fayzulla Xo'ja kabi o'rtoqlarga masalani anglatub, ishni tezdan bitirsang, butun bu yoshlarni o'zingdan abadiyan minnatdor qilg'on bo'lur eding.

Ozarbayjonlardan, armanlardan, gurjilardan yuz-larcha talaba o'qumaqda bo'lg'an bir mamlakatda bizni Mayerzon o'rtoqning ko'ziga bu qadar botuvimiz hayron qolurliq bir narsadir. Beriladig'an qaromi bir nusxasini Mayerzonning o'ziga, ikkinchi nusxasini komissiya ismiga yubormog'ingni iltimos qilaman.

Qaytdadig'on talabalarning ispiskasi umum-talabalik qatnashuvi ila o'zgartilsun. 4 yildan ortuqcha qoladurg'onlar ila cholishtirilmaganlarni qaytaril-sun mazmunida bir teleg'rom berilsa, albatta, hukumat hamda Mayerzon deganiga yetar va bu surat-la haqsizliqning oldi olingan bo'lur edi.

*Kamolli hurmat-la qo'lingdan siqib
eski do'sting Abduvohob.
Mendan Botu va boshqa o'rtoqlarga qalbiy
salomlar.*

Berlin, 7-oktabr 1926

O'rtoq Akmal!
Men Misr sayohatidan yana Germa-niyaga qaytdim. Hozirda seleksioner imtihoni uchun hozirliq ko'rmaqdaman. Seleksioner imtihonlarini bitirib diplomim olsam, O'zbekistonga qarab yo'lga chiqib qolur edim. O'qishlarimni bitirib ishga boshlamag' oldida turg'an uchun naqadar xursand bo'lsam-da, bechora otamni ko'rolmay qolg'onim uchun juda mutaassir bo'ldim.

Misrda har narsani ko'ra bilmadigim uchun biroz qayg'uli qaytdim. Chunki Misr Olmoniyadan qimmat bo'lib bu yerdan yuborilib turgan stipendiya ila zo'rg'agina yashab turdim. Atrofni ko'rmak mashhur "Asvon" to'g'roniga qadar boshqar va Asvonda yangi suv chiqorilib obod qilinmoqda bo'lg'on yerlarda tadqiqot qilmoq mumkin bo'lmadi. Ammo Qohira va uning atrofindagi butun muassa-salarni, maktablarni, ziroat jamiyatlarini ko'rdim va paxta institutida 4 oy ishladim. Bugun shu sayohatimga-da shukr qilmog'im kerak.

Misrning iqtisodiy ahvoli, ijtimoiy holi inglizlarning mustamlaka siyosatlariga doir yoziladig'on narsalar ko'p bo'lsa-da alarni boshqa zamonga, yaxshisi ko'rishgan zamonga qo'yib, faqat Misrdagi O'zbekistonlilardan qisqag'ina yozub o'taman. Misrda jami 500 ga yaqin o'zbek bo'lib, bular 10-25 yillar avval kelib yerlashub qolmishlar. Ba'zilar hunarmand esalarda aksarlari tijorat-la ishg'ol etarlalr. Taassuf ko'plaring bolalari tillarini unutg'onlar. Ammo ichlarinda Jome' al-Azharni bitirgan zakiy odamlar ham bor. Bir-birlaridan uzoq yashamaqlarig'a qaramasdan oralarinda muhabbat, ittifoq juda yaxshidir. Bu ittifoqning sababchisi Qohiradagi o'zbek tekkasi bo'lsa kerak. Chunki shul tekkasi bo'lib bir-birlari ila so'ylasha bilirlar. Hozirgi O'zbekistonga muhabbatlari bo'lsa-da, O'zbekistondagi – ittifoqdagi tash-kilotlardan aslo xabarlar yo'q. Yana eski zamon fikrlari ila yashaylar. Misrga O'zbekistondin ma'lumot kelmaydir. Bir zamonlar Istanbuldan bir-ikkii "Mushutm" jurnali kelgan bo'lsa-da yana to'qtab qolg'on. Bularning ehtyojlarini ko'zda tutib Berlindan bir oz gazeta oldurub berdim. O'qidalir va mamnun bo'ldilar. Men Misrga kelgan vaqtimda Misrdagi rus qochoqlari bir jamiyat tashkil etmakchi bo'lib o'zbeklarni choiqorg'onlar. Ammo o'zbeklar men ila maslahat qildilar. Men-da qochoq ruslarni hech kim ekanliklarini Rusiyada bir tinlik qimmatlari o'lmadig'ini anglatdim. Bular ham ishini bir oz angladilar-da butun ruslardan ayriilib ketdilar. Bechoralar naqadar hasan niyat egasi esalar-da, johildurlar. Bularning muddaoisi faqat matbuotdir. Shuning uchun men ham Berlindan yangi gazetalar yubormog'chi bo'lib va'da qilib qaytg'on edim. Baxt-ga qarshi Olmoniya talabaligi ham matbuotga suvsob yotarlar. O'zbekis-tondan bularga ham matbuot kelmay-dirgan bo'lib qolmish. Albatta, idoralariga yozdik. Mumkin bo'lg'on taqdirida men

ham lozim bo'lg'on yerlarga bizga O'zbekiston matbuotidan ko'proq yuborib turmoqlari uchun so'ylasang ko'p mamnun bo'lur edik. Bu yerdan sharqning bir qismiga matbuot oshirmoq ham juda quloydir.

Akmal!
Vaqtining torligini ko'zda tutib mak-tubni ko'p cho'zmasdan ostidagi 3 rijo ila to'xtatmoqchiman. Qolg'onlarini ko'rish-ganda uzoq so'ylashurmiz.

1. O'zbekistonning maorifiga, yer islohoti, yoshlar harakatiga, xotinlar harakatiga, iqtisodiy tashkilotlari, ish-chi va dehqon tashkilotlariga oid kitob-chalar, statistikalari yubortirilmog'iga cholishsang, chunki O'zbekistonning ikki yillik bayrami munosabati-la bunda bir ikki maqola nashr etmak lozimdir.

2. Bu maktub-la senga Majid o'rtoqning arizasini qo'shib yubordim. Arizadan bu o'rtoqni kim va O'zbekistonda qanday ishlarda bo'lg'onlig'i ma'lum bo'lsa kerak. Bu o'rtoq Buxoro hukumati tarafidan Turkiyaga yuboriligidigan "Bursa"da Usmoniyada o'quydi. Men uyni Usmoniyani bitirgach Ovro'poga kelib shunda a'lo tahsil ko'rmagini tavsiya qilg'on edim. Usmoniyani muvaffaqiyat-la bitirib tavsiyam bo'yuncha Germaniyaga keldi va oliy ziroat maktabiga kirmak uchun hozirlik ko'rib turadir. Ammo moddiy jihatdan juda og'ir holdadir. Buning uchun Majid o'rtoqni O'zbekiston maorif komissarlig'i tarafidan istipendiyag'a qabul etmog'i uchun vositada bo'lsang juda bizni mamnun qilur eding. Hukumat istipendiyasidagi o'rtoqlardan bir qismi qaytib ketganligi uchun ochuq yer borlig'i kabi O'zbekistonga foydasi tegmaydurgan buzuq fikrli o'rtoqlar to'g'risida ham studkom safort ila so'ylashub Samarqandga yozmish ul yerdan ham ikki o'rin bo'shalmog'i mumkindir. Xulosa, o'run bor, faqat sening tavsiyating lozim. Bu rjionni ham yerda qoldirmasdan bir o'rtoq'ingni mamnun qilishingga ishonaman.

3. Meni kitoblarga ehtyojijm kattadir. Ruscha bilmaganim uchun ruscha kitoblardan ham foydalana olmasman. Shuning uchun o'zimga istiqbolda kerak bo'ladurg'on fanniy kitoblardan olib ketmak majburiyatida bo'ldig'im kabi O'zbekistonda topilmaydurg'on ba'zi kichik asbolar ham bordir. Mana shul narsalar uchun menga eng ozi (200) dollar qadar qarz topib bermog'ingni iltimos qilaman. Men bu ashyolarni O'zbekistonga olib borganam so'ng istarsa hukumat o'z moli qilib olabilar va bu surat-la bu narsalardan har kim iste'foda etabildari.

Akmal!
Bu 3 matbuot ila 4 iltimosga javob kutib qolaman. Mumkin va yo mumkin bo'lmag'ligiga oid har holda bir ma'lumot berdir.

Botuni maktabni bitirib O'zbekistonga qaytdi deb eshitdim, salom so'yla!
Abdulhay, Said Ahmad va boshqa bu tuvma o'rtoqlarga salom.

*Adresim:
A.Murodiy
Berlin №30, Geysberg ko'chasi
39-uy.*



TALQIN

“TAN RANJIG‘A SHIFO” SHOIR



Butun olam va undagi jarayonlarga munosabat bildirish uchun kishining zehni o'tkir, quvvay hofizasi keng va ilm-u zakosi baland bo'lishi kerak. Bilimdagi sayozlik fikriy chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Fikr aniq bo'lmagan joyda esa o'z-o'zidan xatolar yaraladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ilm talabi bobida ong-u shuurimizga singishib ketgan quyma misralari bor:

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Hazrat Navoiy ming yilda bir tug'iladigan nodir iste'dod sohibi. Yozgan asarlaridan, necha asrki, adabiyot shaydolari hayrat tuyadi. Hazrat shaxsiyati ijodi orqali anglanib, siyosiy tasavvurda gavdalanadi. Garchi alloma ijodining aksari badiiy asarlardan iborat bo'lsa-da, ular ichida boshqa fanlarga doir mustahkam ilmiy xulosalar borligini ham kuzatamiz. Xususan, uning tib ilmiga oid fikr-mulohazalarini olib qaraylik.

Navoiy "Mahub ul-qulub" asarida "Tabib o'z fanining mohir bilimdoni bo'lishi; bemorlarga rahm-shafqat bilan muomala qilishi; asli tib ilmiga tabiati kelishmogi, donishmandlar so'ziga rioya qilib, ularga ergashmogi; muloyim so'z va bemor ko'nglini ko'taruvchi, andishali, xushfe'l bo'lmogi kerak", deb yozadi. Hazrat bu orqali tabibning o'z ishiga mohir bo'lishi shartligini bildirarkan, aksincha

bilimli tabiblari jamlanadi. "Dorush-shifo"ni Navoiy davrining ulkan sihatgohi sifatida tasavvur etish mumkin. Navoiy u yerdagi bemorlarga moddiy-ma'naviy yordam beradi. U chin ma'noda tibbiyot homiysi edi. Xo'sh, shoir nega tibbiyotga bu darajada e'tibor berdi? Chunki ul zoti sharif xalq holini, sog'liq – bebaho ne'mat ekanini chuqur anglagan edi. Qolaversa, Navoiy umumijodida tibbiyotga, insonning ham ruhi, ham jismiga doir tushunchalar ko'plab uchraydi.

Hozir tabii xushgo'y tan

ranjig'a shifodur,
Omiy-yu tund-u badho'y
el jonig'a balodir.

Ushbu baytda tabib qanchalik xushmuomala bo'lsa, bemorga shifo bo'lishi, badfe'l tabib esa el joniga balo-yu ofat ekani ta'kidlanadi. Shoir tabib zotiga xos yuksak madaniy muomala haqida fikr yuritib, bemor sog'ayishiga shirin so'z eng yaxshi doridir, deydi.

Kim bo'lsa tabiati muolij,
Jismidan etar marazni xorij.

Darhaqiqat, kishining tabiati o'z-o'zini davolaydigan, kuchli mizojga ega. Ya'ni, inson tiynati muolij – davolovchi bo'lsa, kasallik jismidan chiqib ketadi; tana quvvati bilan birga bemor kasallikdan tuzalishni o'zi ham istashi va bunday ezgu tushunchani o'z tabiatiga singdirishi lozimki, bu ham davolashning bir turidir.

Alisher Navoiy – so'z qadrini bilgan, uning qudratini namoyish etgan buyuk alloma. U inson jismining ruhi bilan tutashgani va shu tufayli jism salomatligi uchun ruh ham sababchi ekanini chuqur anglagan holda, o'zgalarga ham anglatish payida bo'ladi:

Jong'a chun dermen:
"Ne erdi o'lmakim jayfiyati?"

Derki: "Bois bo'ldi ishra
marazning shiddati".

Savol-javob shaklida yozilgan ushbu g'azal sharhiga yuzlanar ekan, taniqli navoiyshunos olim Najmiddin Komilov "Ishqning inson a'zolari, ko'ngli, butun vujudini qamrab olgani"ga urg'u beradi. G'azalda, tabiiyki, shoirning tibbiyot hadisini olganligi yana bir bor o'z aksini topgan. Zotan, inson ruhiyatining beqiyos bilimdoni Alisher Navoiy orzu qilgan ekan inson ham ma'nan, ham jismonan yetuk bo'lishi kerakligi hikmatini ana shunda.

Sohiba KARIMOVA

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Xayolga nimalar kelmaydi. "Men shoirman" yoki "falanchiman" deya diliga nima kelsa, she'rga solib yoki sahifalab elga dasturxon qilaverish – nodonlik belgisi. Yosh shoirlar she'rlarida ko'zga tashlanib turadiki, ularda Xudo haqidagi tushuncha islomiy emas, qaysidir manbalardan olingan qiyshiq, qorishiq, quyushqondan tashqari tushuncha.



“OG‘ZIGA KELGANNI DEMOQ – NODONNING ISHI”

Masalan, nasroniylarga xos: "Xudo – chormix qilingan 33 yoshli odam" yoki "oppoq soqolli chol". (Mikelanjeloning kartinasidagiday). Baraka topgurlar, islomda Xudo – bu olamlarning Rabbi. Olamlarning! Yer, quyosh sistemasi, galaktika, biz biladigan moddiy olam – milliard-milliard galaktikalari bilan ulardan bittasi. Xudoning "kursisi" esa yer-u osmonlardan keng. Hozirgi odam Yerdan keng narsani tasavvur qiladi, albatta. Ammo osmonlardan kengni tasavvur qila oladimi? Yo'q, tasavvur qilolmaydi. Men ham qilolmayman.

Axir, osmon hamma galaktikalarni o'z ichiga olgan olam bo'lsa, undan kengroq narsani tasavvur qilib bo'ladimi? Holbuki, bitta olamdan emas, olamlarning barchasidan kengroq deyilmoqda. "Xolaqas-samovoti val-arzi" – osmonlarning yaratuvchisi, bitta bizning osmonimizni emas, sansonosiz olamlarning osmonlarini ham. Biz o'z olamimizni arang tasavvur qilamiz, boshqa olamlarni mutlaqo tasavvur qila olmaymiz-u, ulardan kengroq narsani tasavvur qilish aqldan ozganning ishi bo'ladi. Biz uchun Xudo – Allah, tasavvurimizga sig'maydi. Siz xudoni boshlig'ingizni yoki xayolingizga kelgan boshqa mavjudot sifatida tasavvur qilsangiz, nafaqat xato qilasiz, gunoh qilasiz, shirk keltirasiz, balki bu masalada g'irt savodsizligingizni yoki befarosatliligingizni oshkor etgan bo'lasiz. Nasroniy shoirlardan ibrat olmag. Navoiydan ibrat oling.

Masalan:
Yuz bu olamcha mavjud etay desang,
"Kun fayakun" iborati anga kofiy,
Va ming onchani ma'dum (yo'q)
etay desang,
"Xabo'an mansuro" ishorati
anga vofiy.

Bemonandlig'ingga "Laysa kamislihi shay'un"(Senga o'xshash hech narsa yo'q) guvohi sodiq, Bepayvandlig'ingga "Lam yalid va lam yulad" dalili muvofiq.

Hamdingda takallum ahli tili qosir,
Siposingda mutakallimlar –
ajzdin (ojizlikdan) mutahayyir.
(Navoiyning "Munjojt"idan).

O'zbek shoirman deyidigan,
albatta, bu asarni o'qib chiqmogi kerak. Unda boshqa gaplar ham ko'p. Bu faqirning fikricha, undagi mana bu bir band ming jild kitobdan salmoqliroq:

Ilohi (ilohim), ko'nglumni
niyoz-u dard ahlig'a moyil tut,
Va niyozim ko'zun dardmandlar
ayog'i tufrog'i ila yurut.

Alloh taolo o'zbek shuaroning ustodi bo'lmish Alisher Navoiyning go'rini nurga to'ldirsin. Va u nurdan so'qir shoirlar ko'zini ochsin. Allohu akbar.

Abdulla A'ZAM,
Facebook

TILBILIM



“QURB” QAYGACHA YETADI?

Biror narsaga kuch va imkoniyat yo mablag' yetishi haqida gap ketganda "Qurbing yetadimi?" deydimi? Xo'sh, qurb so'zi asli qanday ma'noga ega? "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da arabcha qurb so'ziga "yaqinlik, qarindoshlik" ma'nosini anglatadi, deb izoh berilgan. Holbuki, bu so'zning ma'nosi bizning hozirgi tilimizda butunlay o'zgarib ketgan. Hatto, "Qurbi qanchaga yetadi?" degan gapni "Puli qancha?" deb tushunamiz. Xullas, qarindoshlik o'rini pul va boylik tortib olgan.

"Navoiy asarlari lug'ati"da qurb so'zining qarindoshlik ma'nosini anglatishi haqida hech narsa deyilmaydi va qurb – yaqinlik, yaqin bo'lish, qurbat – yaqinlik, yetishish, deb izohlanadi. Yaqin qarindoshlik Navoiyda qarobat so'zi bilan ifodalandi.

"Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da qurb so'zi yaqinlik, yaqin

bo'lish ma'nosi bilan birga qobiliyat va loyqlik ma'nosida ham izohlanadi. Lekin, baribir, ilk ma'no "yaqinlik" bo'lib qolaveradi.

Navoiyda qurb so'zi Xudoga yaqinlik ma'nosida keladi. Masalan, "Nasoyim ul-muhabbat"da Abulhusayn Ibnulhind al-Forsiy ta'rifi-da shunday gaplar bor: "Har kishini Haq taolo o'z qurbi bisotida o'lturtqay, har ne anga yetsa, ani rozi va xushnud qilg'ay, nechunki, qurb bisotida norizoliq va noxushnudluq bo'lmagay". Bu yerda qurb so'zi Allohga yaqinlik ma'nosini ifodalab kelayotgani yaqqol ko'rinib turibdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi paytda pul va mol-dunyoga yaqinlik ma'nosini ifodalashga majbur bo'lib qolgan "Qurbi yetadimi?", "Qurbi qanday?" degan gaplar bir zamonlar tilimizda "Xudoga yaqinligi qanday, imon-e'tiqodda darajasi qanday?" degan ma'noni anglatgan bo'lsa, ajab.

Eshqobil SHUKUR

JAHON AYVONIDA

TRAMP TA'LIM VAZIRLIGINI TUGATMOQCHI

Donald Tramp ma'muriyati AQSh Ta'lim vazirligini tugatish va bir qancha federal agentliklarni qayta tashkil etish rejasini ishlab chiqmoqda. The Wall Street Journal nashri xabariga ko'ra, bu Tramp va Ilon Mask tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning bir qismi.

Shuningdek, yangi ma'muriyat AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi – USAIDni byudjet mablag'larini isrof qilishda ayblab, uning samaradorligini qayta ko'rib chiqishga qaror qilgan.



ISROILNING QARORI

Isroil ham AQShning izidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashidan chiqishini e'lon qildi. Bu haqda mamlakat TIV rahbari Gideon Saar o'zining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasiga yozib qoldirdi.



Saarning yozishicha, Isroil AQSh prezidenti Donald Trampning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi ishida ishtirok etmaslik qarorini olqishlaydi.

OMMAVIY DEPORTATSIYA MUHOKAMADA

Yevropa Ittifoqi BMTning qochqinlar maqomi haqidagi konvensiyasini qayta ko'rib chiqishni muhokama qilmoqda, deb xabar beradi The Times. 1951-yilda qabul qilingan bu hujjat qochqinlarni xavfli hududlarga qaytarishni taqiqlaydi, ammo Yevropa davlatlari migratsiya oqimi sabab uni qayta ko'rib chiqishga majbur.

2024-yilda Yel davlatlariga 1 mln.dan ortiq qochqin ariza topshirgan, bu esa millatchi va populistik partiyalar pozitsiyasini kuchaytirdi. Polsha hukumati tayyorlagan

diplomatik hujjatda Yevropa davlatlari deportatsiya imkoniyatlarini cheklanganidan norozi ekani aytiladi.

Hujjatda, shuningdek, Yevropa davlatlari qochqinlarni qabul qilish imkoniyatlarini tobora cheklanib borayotgani va ayrim muhojirlar jamiyatga integratsiyalashni istamasligi ta'kidlangan.

TURKIYA O'SMIRLARGA IJTIMOY TARMOQLARNI TAQIQLAMOQCHI

Turkiya 2025-yilda 16 yoshdan kichik bolalar uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklashni rejalashtirmoqda. Bu haqda mamlakat transport va infratuzilma vaziri Abdulqodir Uralog'lu ma'lum qildi.

Uning so'zlariga ko'ra, bolalar eng nozik qatlam va ularni himoya qilish kerak. "Yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlarda foydali narsa yo'q. Biz bu borada tartibga soluvchi choralar ko'rishni rejalashtiryapmiz", dedi vazir CNN Turk telekanaliga.

Turkiya bu borada xalqaro tajribani o'rganmoqda. Avstraliya 2023-yilda 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni taqiqlagan. Norvegiya esa bu chegarani 15 yoshga tushirishni rejalashtirmoqda.

TRANSGENDER SPORTCHILARGA TAQIQ

Oq uy veb-saytida e'lon qilingan Tramp farmonga ko'ra, transgender shaxslarning ayollar va qizlar sport jamoalarida qatnashishi man etiladi. Bunga yo'l qo'ygan ta'lim muassasalari federal moliyalashtirishdan mahrum qilinadi.

Qaror asosan maktab, universitet va havaskorlar musobaqalariga taalluqli hisoblanadi. CNN nashri xabar berishicha, Tramp ma'muriyati AQSh Olimpiya qo'mitasi va Milliy talabalar sporti uyushmasi bundan buyon transgender shaxslarning ayollar bilan musobaqalashishiga yo'l qo'ymasligiga umid bildirmoqda.



Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:

Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:

Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:

Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov

Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 8 612
Lotin yozuvidagi adadi – 12 616
Media kuzatuvchilar – 19 860
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxon: (71) 203-24-20
Devonxon: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz